Ilmiy xulosalarga ega bo'lish.

v) 56-70 ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi

lozim:

Adabiyot nazariyasining muhim mavzulari bo'yicha tasavvurga ega bo'lish;

Nazariy ma'lumotlarni bilish, o'rta darajada aytib berish;

g) quyidagi hollarda talabani bilim darajasi 0-55 ball bilan baholanishi
 mumkin:

"Adabiyot nazariyasi" fanining bo'limlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;

O'tilgan mavzularni bilmaslik va adabiy-nazariy qoidalarga misollar keltira olmaslik yoki ularni qorishtirib yuborish;

Yozma va og'zaki savodxonlik darajasining, ilmiy-ijodiy fikrlashining nihoyatda pastligi.

Reyting jadvali:

Nazorat	Turi	Maksimal ball	Saralash bali
Joriy nazorat:14	Savol-javob	5	3
	Tahlil	5	3
	Mustaqil ish	4	3
Oraliq nazorat:56			
	Yozma ish	28	15,4
	Test	28	15,4
Yakuniy nazorat:30	Yozma	30	16,5
Jami:100		100	55

Talabani o'zlashtirish darajasini belgilash uchun maksimal ball: 100; saralash bali: 55. Mazkur fandan 7-semestr oxirida yakuniy nazorat topshiriladi. OB uchun maksimal ball: 40 (*har biri 20 balldan 1 marta yozma ish tarzida topshiriladi*). JB uchun maksimal ball: 45 (*dars davomida va mustaqil ish jarayonida to'planadi*). YaB uchun maksimal ball: 15. YaBga OB va JBning 55%ini (ya'ni 47 ball) to'plagan talaba kiritiladi.

Oraliq nazoratlarni o'tkazish uchun og'zaki va yozma ish variantlari tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan nazariy savol beriladi. Nazariy savolga berilgan javoblar 0-20 ball oralig'ida baholanadi.

Nazariy savolga to'g'ri va to'liq javob berilgan, fikri badiiy asarlardan olingan misollar bilan asoslangan, ifoda va bayonda uslubiy-mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan hamda yozma ishda imloviy xatolari 1-2tadan oshmagan ishlar 17-20 ball (86%-100%) oralig'ida baholanadi.

Adabiy-nazariy savolga, asosan, to'g'ri javob bo'lsa ham ishda misollar kam, ifoda va bayonda izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan, shuningdek, imloviy xatolar miqdori 3-4tadan oshmagan ishlarga 14-17 ball (71%-85%) oralig'ida baholanadi.

Ilmiy-nazariy savol yetarli ochilmagan, ifoda va bayonda uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan va imloviy xatolari 5-7 tadan oshmagan ishlarga 11-14 ball (55%-70%) oralig'ida baholanadi.

Nazariy savolga noto'g'ri javob berilgan yoki umuman javob berilmagan, misollar tahlili noto'g'ri, ifoda va bayonda bog'lanishlilik buzilgan, imloviy xatolari 8tadan ko'p bo'lgan ishlar 0-10 ball (0%-54%) oralig'ida baholanadi.

Joriy nazoratlar uchun ajratilgan 45 ball talaba tomonidan amaliy mashg'ulot davomida to'planadi. Bunda 30 ball barcha mavzulardagi tayyorgarligi o'z vaqtida namoyon bo'lgan hollarda shakllanadi.

Talaba mustaqil ish sifatida yozib topshirgan referati uchun 15 ballgacha baholanadi. Mustaqil ish o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan muayyan bir badiiy matn asosida tayyorlanadi. Baholashda ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, mavzuga aloqador misollar to'g'ri to'plangani va asosli tahlil qilingani, adabiyotlar ro'yxati to'g'ri shakllantirilgani kabilarga e'tibor beriladi.

Ifodada uslubiy-mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi ayon bo'lgan va imloviy xatolari 1-2tadan oshmagan ishlar 13-15 ball (86%-100%) oralig'ida baholanadi.

Ifodada izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan, shuningdek, imloviy xatolar miqdori 3-4tadan oshmagan ishlar 10-12 ball (71%-85%) oralig'ida baholanadi.

Ifodasida uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan, tahlil to'g'ri olib borilgan va imloviy xatolari 5-7tadan oshmagan ishlar 8-9 ball (55%-70%) oralig'ida baholanadi.

Ifodada bog'langanlik buzilgan, tahlili noto'g'ri bo'lgan, imloviy xatolari 8tadan ko'p bo'lgan ishlar 0-7 ball (0%-54%) oralig'ida baholanadi.

Yakuniy nazoratlar yozma savol-javob tarzida o'tkaziladi. YaB uchun maksimal ball: 15. Yakuniy baholashlarni o'tkazish uchun savol-javob variantlari tayyorlanadi. Har bir variantda uchtdan nazariy savol beriladi.

Nazariy savollarga to'g'ri va to'liq javob berilgan, fikr badiiy asarlardan olingan misollar bilan asoslangan, ifodada uslubiy-mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan bo'lsa 13-15 ball (86%-100%) oralig'ida baholanadi.

Nazariy savollarga asosan to'g'ri javob bo'lsa ham ishda misollari kam, ifodada izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan ishlar 10-12 ball (71%-85%) oralig'ida baholanadi.

Nazariy savollar yetarli ochilmagan, ifodada uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilgan, ko'chirilgan ishlar 8-9 ball (55%-70%) oralig'ida baholanadi.

Nazariy savollarga noto'g'ri javob berilgan yoki umuman javob berilmagan, misollar tahlili noto'g'ri, ifodada bog'lanishlilik buzilgan ishlar 0-7 ball (0%-54%) oralig'ida baholanadi.

Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarining har biri bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talabaning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akadem qarzdor) hisoblanadi.

2.1.3. Kalendar-tematik reja

“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri: _____ dots. I.Ikromov

DASTUR BAJARILISHNING KALYENDARLI REJASI

(ma`ruza, amaliy mashg`ulot, musta`qil ta`lim)

Fakultet: Filologiya

Akademik guruh: 5141100-O'zbek tili va adabiyoti

Bosqich: 4.

Fanning nomi: Adabiyot nazariyasi

Ma`ruza o`qiydi: dots.Yu. Karimova

Amaliy mashg`ulotlarni olib boradi: dots.Yu. Karimova

№	Mavzu va nazorat turlari	Ajratilgan soat	Ryeja-n sana	Bajar-n sana	Nazoratga ajratilgan ball	O`qituvchi imzosi
Ma`ruza mavzulari (30 soat)						
1	Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida, fanning maqsad va vazifalari	2				
2	Adabiy-nazariy tafakkur tarixi	2				
3						
4	Badiiy adabiyotning ijtimoiy funksiyasi va ahamiyati	2				
5	Badiiy asar tarkibi va uning tahlili	4				
6	She`rshunoslik asoslari	2				
7	Adabiy turlar va janrlar	4				
8	Ijod jarayoni	2				
9	Ijodiy metod, adabiy yo`nalishlar va oqimlar	2				
10	Badiiy san`atlar	2				
11	Yozuvchi ijodiy laboratoriyasi	2				
12	Adabiy ta`sir va adabiy aloqalar	2				
13	Yozma adabiyot va folklor	2				
14						

15						
OB (Oraliq baholash)		SHakli			Maks. b	Sar-sh.b
		Yozma ish, og`zaki			56 b	29 b
Amaliy mashg`ulot mazular (10 soat)						
1	Adabiy-nazariy tafakkur tarixi	2			2	
2	Badiiy obraz	2			2	
3	Badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi	2			2	
4	Adabiy turlar va janrlar	2			2	
5	Ijodiy metod. Adabiy yo`nalish va oqimlar	2			2	
6						
7						
8						
JB (Joriy baholash)		SHakli			Maks. b	Sar-sh.b
		Savol-javob			14b	8 b
Musta`qil ta`lim topshiriqlari (36 soat)						
1	Tavsiya qilingan adabiyotlarni o`qish va konspektlashtirish.					
2	Tahlil qilingan asarlar asosida “Albom ” tayyorlab topshirish.					
YAB (YAkuniy baholash)		SHakli			Maks.b.	Sar-sh.b.
		Yozma			30 b	17 b.

Yetakchi o'qituvchi: dots. Yu.Karimova

«ADABIYOT NAZARIYASI»

fanidan
MA'RUZA MATNI



KIRISH.

ADABIYOT NAZARIYASI FAN SIFATIDA

R e j a

1. Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi ekanligi.
2. Ular o'rtasidagi munosabat.
3. Istiqlol mafkurasini shakllanishida adabiyot nazariyasining o'rni.
4. Adabiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot nazariyasi 1,2 tom. 1979
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi 1980 yil
3. Adabiyotshunoslik tyerminlari lug'ati. 1983 yil

TAYANCH IBORALAR

1. Adabiyot nazariyasi.
2. Adabiyot tarixi
3. Ijodiy jarayon
4. Adabiy nazariy qarash

Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi sanaladi. Adabiyot nazariyasi adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik myetodologiyasi bilan aloqador. Bu fan adabiy asarlarning yaratilish qonun qoidalari bilan shug'ullanadi.

Adabiyot nazariyasining pryedmyeti badiiy adabiyotning yaratilishi haqidagi qonun-qoidalar haqidagi fandir. Unda badiiy adabiyotning spyetsifikasi, hayot bilan aloqasi, ijtimoiy-estyetik qimmat, badiiy asarning tuzulishi, ijodiy jarayoni, hamda badiiy myetod masalalari o'rganiladi. Qo'shimcha shu yerga kiritiladi.

Istiqlol mafkurasining shakllanishida adabiyot nazariyasini ahamiyati katta. CHunki, istiqlolni tarannum etib yozilgan asarlarni tahlil qilish, kamchilik va yutuqlarini ajratish adabiyot nazariyasining funktsiyasi hisoblanadi. Badiiy asarlarga munosib baho byerishda jamiyat hayotini ijobiy tomonga o'zgartirishda adabiyot nazariyasining o'ziga xos roli bor.

Adabiyot nazariyasi fan sifatida shakllanishida, taraqqiy etishida jahon adabiyot nazariyasining o'z o'rni bor. Ijtimoiy badiiy tafakkurning tarkib topishi byevosita xayoliy jarayon bilan bog'liqdir.

Adabiyot nazariyasi jahon adabiyoti tajribalari bilan boyidi, taraqqiy etdi.

Adabiyot nazariyasi jamiyat badiiy madaniyatini o'stirishda, san'atkorlarning ijodiy tajribalariga, taraqqiy etgan adabiyotlar tyendyentsiyalariga asoslanadi.

Adabiyot nazariyasi qator fanlar bilan aloqadordir. U jamiyat haqidagi falsafiy fikrlarni umumlashtirgan falsafa fani bilan aloqador. CHunki har qanday badiiy asar xulosasida albatta umumlashma falsafiy fikrlarning mavjudligi ma'lum. Adabiyotda byevosita estyetik munosabatlar birinchi o'rinda turadi. SHuning uchun estyetika fani bilan aloqadordir. SHuningdyek bu fan tilshunoslik, san'atshunoslik fanlari bilan mutloq aloqador.

Ayniqsa, inson ruhiyatining nozik tomonlarini ko'rsatib byeruvchi psiHOLogiya fani, uni ilmiy o'rganish adabiyot nazariyasini yetakchi xususiyatidir. Dyemak adabiyot nazariyasi psixologiya va boshqa fanlar bila ham aloqador.

Nazariya o'zi esa tarixiy o'rganish natijasida va zamona tarixiy- pryessining saboqlari asosida maydonga kyeladi. Nazariya va tarixini bilish bilan bilan qurollanmagan tanqid o'z davrining adabi protsyessini tushinishiga, unga qo'maklanishiga qodir emas.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari orasida aloqa juda muhimdir.

Hozirgi zamon asarlariga baho byerishda, zamona tarixiy protsyessini tahlil etish "Adabiy tanqidning vazifasidir. O'tmish va hozirgi zamon adabiyotini o'rganishning printsip va usullarini tayin etish" "Adabiyotshunoslik myetodologiyasi" zimmasiga tushadi.

"Adabiyot tarixi" "Adabiy tanqid" va Adabiyotshunoslik myetodologiyasi" adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi bo'lib, ularning yutuqlari asosida "Adabiyot nazariyasi" fani bunyodga kyeladi.

Adabiyot nazariyasi badiiy so'z asarlarining ijtimoiy hayotda uynagan roli, badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari haqida badiiy ijodning turlari, badiiy asarning strukturasi va ijod protsyessining qonuniyatlari haqidagi ta'limotdir. Adabiyot nazariyasi o'tmish va hozirgi zamon tarixiy-adabiy jarayonining qonuniyatlarini o'rganadi, adabiyotni to'g'ri tushunish va rivojlantirish uchun kyarakli xulosalarni chiqaradi. Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslik qismlarining yutuqlari asosida yuzaga kyelish bilan birga o'z ilmiy xulosalari asosida adabiyot tarixini ham, adabiyot myetodologiyasi va adabiy jarayonni ham boyitadi.

Adabiyotshunoslik fanining yuqorida aytilgan yordamchi sohalari ham adabiyot nazariyasi fanining rivojiga munosib hissa qo'shadi. Jumladan bibliografiya (biblio-kitob, grafo yozuv - yunoncha) sohasi kitoblarining yozilgan; ko'chirilgan yoki bosib chiqqan vaqti xaqida ma'lumot byeradi. "Tyekstologiya" ham adabiyot shunoslikni muhim sohasi bo'lib, badiiy asarlarning ayol tyekstini tanlash va to'g'ri o'qish usullarini ishlab chiqadi.

YUqoridagi yordamchi sohalar ham Adabiyot nazariyasi fanining rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari orasidagi uzilmas aloqa mavjud. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari orasidagi bu uzilmas aloqaga XIX asrdayoq CHyernishyevskiy N.G. e'tibor qilgan edi. "San'at tarixi san'at nazariyasiga" asos bo'lib xizmat qiladi, kyeyin san'at nazariyasi san'at tarixining yana ham mukammalroq, yana ham to'laroq ishlanishiga yordam byeradi. Tarixiy yaxshi ishlash nazariyasining yana ham mukammallashuviga xizmat etadi. Nazariya va tarixning bu bir-biriga foydali ta'siri so'ngsiz davom etadi. Pryedmyetning tarixisiz pryedmyetning nazariyasi bo'lmaydi.1

Dyemak, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari orasiga xitoy dyevori qo'yib qo'ymaslik kyarak"

Adabiyotshunoslik - badiiy adabiyotni, uning mohiyatini, kyelib chiqishini va ijtimoiy aloqalarini har taraflama o'rganuvchi fandir. Adabiyotshunoslik- badiiy adabiyotni, uning mohiyatini, kyelib chiqishini va ijtimoiy aloqalarini har tomonlama o'rganuvchi fandir. So'z orqali badiiy fikrlashning, spyetsifikasi (o'ziga xos

xususiyati) haqidagi, badiiy ijodning gienyezisi (nyegizi, zamini) strukturasi (tuzilishi), tarixiy-adabiyot protsyessining lokal (ma'lum joy va davrga oid) va umumiy qonunlari haqidagi bilimlar jamidir. Dyemak: badiiy adabiyotni va ijodiy jarayonning o'rganishning printsiplari va myetodlari haqidagi fan-adabiyotshunoslik fanidir. Bu fan klassikani va klassiklarining ijodini o'rganadi. Adabiyotni yaratish jarayoni byevosita adabiyotshunoslikning, shuningdyek adabiyot nazariyasining pryedmyeti sanaladi.

Adabiyotning yaratish protsyessiga adabiy mahsulot yaratishda ishtirok etgan hamma yozuvchilarning, bir-biri bilan kurashuvchi barcha idyeologik oqimlarning, adabiyot tarixidagi ularning faoliyati ham byevosita ushbu olimning pryedmyeti sifatida o'rganiladi.

Adabiyot nazariyasi mumtoz adabiyot nazariy qarashlari bilan byevosita aloqador. Bugungi kunda mumtoz adabiyotdagi nazariy qarash va adabiy tyerminlarga munosabat yana ham kuchaydi. Ayniqsa, aruz vaznini o'rganish uning nazariy tomonlariga e'tiborni qaratish kuchaydi. Mumtoz qarashlar bilan qiyoslash va umumlashtirish kuchaydi.

Hozirgi zamon adabiyot nazariyasi fani oldida qator muammolar mavjud. Bu muammolar adabiy-nazariy qarashlarni chuqur ishlab chiqish, butun taraqqiyparvar adabiy myerosni tanqidiy o'rganish, o'zlashtirish zarur. O'tmish va hozirgi zamon adiblarining adabiyot to'g'risidagi nazariy qarashlarini izchil o'rganish, ijobiy tajriba va fikrlarni zamonaviy adabiy jarayonga targ'ib etish eng asosiy adabiyot nazariyasining birinchi galdagi vazifasidir.

Istiqlol mafkurasini shakllanishida adabiyot nazariyasining roli katta bo'ldi. Asarlarni badiiy tahlil qilib, ularni baholarini byerishda adabiyot nazariyasini o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Adabiyotshunoslikning qanday tarkibiy qismlarini bilasiz?
2. Adabiyon nazariyasi adabiyotshunoslik tarkibiy qismi ekanligini qanday myetodlaysiz?
3. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari o'rtasida qanday munosabat bor?
4. Jamiyat badiiy madaniyatini o'stirishda bu fanning ahamiyati nimada?
5. Nazariya qanday yuzaga kyeladi?
6. Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalariga qaysilar kiradi?
7. Asosan adabiyot nazariyasi fan sifatida dyegandan boshlab o'rganiildi?
8. Ushbu fanning ahamiyati nimada?
9. Siz adabiyot nazariyasi haqida yana nimalarni bilasiz?
10. Adabiyot nazariyasi anday fanlar bilan aloqador?

MAVZU: BADIY ADABIYOTGA ILMIY-TARIXIY QARASHNING SHAKLLANISHI

R E J A

1. Nazariy maktablarni shakllanishi.
2. Mifologik maktab
3. Qiyosiy-tarixiy myetod.
4. Madaniy-tarixiy maktab.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik
2. Qo'shjonov M. Ma'no va myezon. Toshkyent, 1974
3. G'.Karimov. Halq, tarix, adabiyot

TAYANCH IBORALAR

1. Maktab nima
2. Myetod haqida tushuncha.
3. Filologik maktab
4. Psixologik maktab

Badiiy adabiyotni shakllanishida, fan sifatida rivojlanishida nazariy maktab, myetod va myetodologik printsiplarni o'ziga xos ahamiyati bor. Ayniqsa bu maktablarning rivojlanishida G'arbiy Yevropa olim va nazariyotchilarining xizmatlari katta bo'ldi. Ayniqsa XIX asrda G'arbiy Yevropada nazariy qarashlar rivojlandi. Ular dastlab quyidagi maktablar asosida shakllandi, taraqqiy etdi.

Mifologik maktab. asoschilari: aka-uka Grimmlar bo'lib, ular jahon adabiyoti bir manbaadan, hind mifologiyasidan tarqalgan dyeb biladilar. A.Kun, A.N.Afanaspyev, M.Myullyer ham mifologiyani badiiy adabiyotning asosi dyeb biladilar. Butun jahon adabiyotini bir manbaadan tarqalgan dyeb qarash, ularni mifologiyadan tarqalgan dyeb bog'lab ko'yish u qadar hayotiy va badiiy haqiqatga to'g'ri kyelmaydi.

Biroq, hozirgi adabiyotning rivojlanishida mifologiyani o'ziga xos ahamiyati bor. Bugungi o'zbyek adabiyotshunosligida folpklor va mifologik unsurli ilmiy ish sifatida o'rganilmoqda. Umuman aytganda, bu maktabni ham juda katta o'rni va ahamiyati bor.

Qiyosiy-tarixiy myetod. (Komparativizm). Asoschilari: D.Dyeylop, P.Byeifyey, A.Vyeilovskiylar adabiyotni qiyosiy jihatdan o'rganishni taklif etadilar. Qiyosiy o'rganishni muhim tomonlarini ko'rsatib byeradilar. Adabiyot taraqqiyotini bir xil obrazlar, motivlar va syujetlarning ko'chib yurishidan iborat dyeb qarash u qadar to'g'ri emas. Bu esa adabiy jarayonda o'xshash obraz va syujetlarni kyeltirib chiqarishi mumkin. Har doim adabiy jarayondagi o'zgarish va tyendyentsiyalarni boshqa adabiyotlar tarixidan qidirish to'g'ri emas. Bu esa har bir adabiyotda yuz byergan motivlarni o'tmish adabiy myerosini adabiy masuli dyeb, ko'klarga ko'tarib maqtash adabiy jarayonga naf kyeltirmaydi.

Bugungi kunda bu myetodning o'z o'zni va ahamiyati bor. Chunki bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda qiyosiy-tipologik o'rganishga katta e'tibor berilgan. Har bir badiiy asar qiyosiy o'rganilar ekan ularni milliy zamindan ajratib qo'yimaslik kerak. Badiiy asarni ilmiy qiyosiy-tipologik o'rganish tanlab olingan har bir asarni adabiy jarayondagi bo'y-bastini ko'rsatib beradi.

Madaniy-tarixiy maktab. Asoschilari: I.Tyen, F.I.Buyelayev, A. Papinlardir. Ularning nazariyalari shundan iboratki, har bir badiiy asarni ijtimoiy, milliy, jug'rofiy, muhit bilan bog'liqlikda o'rganishdan iborat. Ularni bu qarashlarida jon bor. Albatta har bir asarda milliylik, umuminsoniylik g'oyalari mavjud bo'ladi. Obrazlarda jug'rofiy dyetallarni obrazlar darajasiga ko'tarilishi tabiiydir. Biroq har bir katta, ayniqsa kichik hajmdagi asarlardan bu xususiyatlarni qidirish, tahlil qilish adabiy jarayon uchun ijobiylik kasb etmaydi. Irg, muhit, momiyent rolining absolyutlashtirish mutlaqo ilmiy talabga, uning rivojiga xizmat etmaydi. Ijodni tarixiy an'anaga bog'lab qo'yish, uni an'ananing mahsuli dyeb qarash sira mumkin emas. Ular adabiy ta'sir va aloqani sira tan olmaydilar. Adabiy ta'sir va aloqani inkor etish mumkin emas. Badiiy adabiyotni xalq tarixi, turmushi, psixologiyasi bilan bog'lab, konkret-tarixiy va milliy xususiyatni hisobga o'rganishni ahamiyati katta.

Biografik maktab. Asoschisi: P.O.Synt - Byov, G.Brandyeye, N.I.Storoyenko, A.TSvyeyg singarilari yozuvchi ijodini o'rganishda uning biografiyasiga bog'lab o'rganishni tavsiya etadilar.

Biografiya rolini asarni tahlil qilishda idyeallashtirish, har bir asarni tahlil qilish jarayonida biografiyani qidirish sun'iylik kasb etadi. Bu myetod har doim ham o'zini oqlamaydi.

Biroq, ayrim asarlarning avtorini aniqlashda, biografik myetodni o'ziga xos ahamiyati bor. Ayniqsa, biografik asarlarni o'rganishda bu myetod nazariyayotchilarining qarashlari o'zini oqlaydi. Psihologik maktab: Asoschilari: Myullyer, Fryeyfelps, A.Potyebnya, S.Jiradyen, V.Vunt, A.Gorifyelpdlardir. Adabiyotga ryeal borliq bilan bog'liq bo'lmagan hodisa sifatida qarash kuchaydi. Adabiyotni ramzlar yig'indisi sifatida talqin qilish kabi holatlar uchradi. To'g'ri adabiyotda ramz-simvollar mavjud, ammo butun adabiy hodisa va obrazlarni ramzlarning ko'rinishi dyeb baholash, talab etish mutlaqo noto'g'ridir. San'at asari byevosita hayot bilan aloqador bo'ladi. Ob'yektizm, idyeologi psixologik maktabni asosini tashkil etadi.

Filologik myetod. Asoschilari: Gyerman Paulp. V.Pyeryetts. Adabiy asarning asl nusxasini yoki unga yaqin matni tiklash uchun asar yozilgan sana va muallifni aniqlash bilan shug'ullanishini targ'ib etish. Bu myetod VI asrlarda qadimgi YUnonistonda dunyoga kyelgan bo'lib, XIX asrlarda katta yutuqlarga erishganligi ma'lum.

Hozirgi davrda matnshunoslik ilmiy adabiyotshunoslikning muhim, yordamchi sohalaridan bo'lib qolgan. Ayniqsa, qadimgi yozilgan badiiy asarlarning matnini aniqlashda filologik maktab asoschilarining nazariy fikrlari juda qadrlidir.

Hozirgi o'zbyek matnshunosligiga munosib hissa qo'shgan qator zahmatkash olimlarimiz bor. Porso SHamsiyev, H.Sulaymonov. I.Sultonovlar shular jumlasidandir. Bu olimlarimiz klassik adabiyot asarlarinining tyekstlarini arab grafikasidagi ko'l yozma manbalarni hozirgi o'zbyek yozuviga o'tkazish, ikki-uch xil

yoʻzilib kyelingan soʻzlarni bir xil qoida ostiga olish, imlo xatolari bilan bogʻliq murakkab masalalarni hal qilish ustida jiddiy ish olib bordilar.

Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Munis, Muqimiy Furqat kabi klassik shoirlarning asarlarining tyekslari tayyorlanib, hozirgi davr alfavitida nashr ettirilganligi matnshunos olimlarning katta xizmati boʻldi.

Ayniqsa, matnshunos olim Hamid Sulaymonning xizmatini alohida taʼkidlab oʻtish lozim. U har qanday qarshiliklar boʻlishiga qaramay oʻzining maqsadini qaytmadi. Navoiy asarlarini oʻz vatandoshlariga qaytarilishida jonbozlik koʻrsatdi.

"Xazoyinul-maoniy" ga kiruvchi dyevonlarning tanqidiy tyekstini Hamid Sulaymonning oʻzi, "Xamsa" ga kiruvchi dostonlarning tanqidiy tyekstini Solih Mutallipov kabi olimlarimiz nashrga tayyorlaganlar.

Biroq shu bilan birgalikda klassik adabiyot asarlarini tyekstlarini nashr etish borasida hali ham baʼzi bir xatolarga yoʻl qoʻyilmoqda. Dyemak, adabiyotshunoslikning adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tankid kabi tarkibiy qismlari ham, boshqa qismlari ham muhim vazifalar bajarishga safarbar kilingan. Bu qismlar oʻzaro aloqada ish koʻrgandagina, adabiyotshunoslik tyez surʼatlar bilan rivojlanadi., hamda badiiy adabiyotning kyeng va chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nazariy maktab nima?
2. Qanday nazariy maktablarni bilasiz?
3. Mifologik maktab asoschilarining gʻoyalari nimadan iborat?
4. Siz ularning fikriga qoʻshilasiz-mi?
5. Qiyosiy tarixiy myetod asoschilari qanday qarashga ega?
6. Madaniy-tarixiy maktab asoschilari-chi?
7. Filologig maktab asoschilari qanday gʻoyani ilgari suradlar?
8. Tyexnologik maktab targʻibochilari kimlar?
9. YUqoridagi maktab va myetodlarning bugungi kunda qanday ahamiyati bor?
10. Bugungi kunda zamonaviy adabiyotshunoslikda qanday myetodlar bor?

MAVZU: HOZIRGI ADABIYOTSHUNOSLIKNING ASOSIY METODLARI

R E J A

1. Hozirgi adabiyotshunoslikning asosiy myetodlari
2. Psixoanalitik myetod.
3. Intuizmi myetodining o'ziga xos xususiyati.
4. Formalizm, ekzistyentsializm myetodi.
5. Strukturalizm myetodi haqida tushuncha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot nazariyasi 2 tomlik. 1978, 1979
2. Filosofiya lug'ati. Toshkyent 1976

TAYANCH IBORALAR:

1. Psixoanalitik myetod.
2. Intuitivizm
3. Formalizm.
4. Strukturalizm.

Psixoanalitik myetod. E.Fryeyd, I.Nyeyfyelpd, I.D.Yermonovlar adabiyotni ehtiroslarga boy bo'lgan holatlarni ko'rsatib byerish adabiyotning asosi dyeb biladilar. Badiiy adabiyotdan xuddi shunday holatlarni qidirishni targ'ib qilishdi. Badiiy adabiyotda erotik motiv va mavzularning o'rni, mye'yorini bilish zarur. Ortiqcha bunday holatlarni tasvirlash inson tarbiyaiga, insonlarning didiga adabiyotni ahloqiy-estyetik funktsiyasiga salbiy ta'sir etish mumkin.

Ayniqsa, o'zbyek adabiyotida bunday holatlarni mye'yoriy tasvirlanishi talab etiladi. Xalqimizning milliy, diniy xususiyatlari ham sira bunday holatlarga to'g'ri kyelmaydi.

Intuitivizm - filosofiyada idyealistik oqim bo'lib, bu oqim impyerializm davridagi burjua filosofiyasida katta ta'sirga ega bo'ldi. Etikada 20-asrdagi burjua etikasining yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu yo'nalish etikadagi hozirgi zamon formalizmiga asos soldi. U dastlab Angliyada, 50-yillarda AQSH da tarqaldi. A.Byergyeon, B.Krocha, YU.UAyxenvalpd, A.M.Yevlakovlar kabi olimlarr hayotni tiyran, sinchiklab - intuitsiyaga xos o'rganish bu myetodning asosini tashkil etishini ta'kidlashgan.

YA'ni intuitsiya - (lot.-sinchiklab qarash) avval mantiqiy muhokama qilmasdan, haqiqatni byevosita payqash qobiliyati Marksdan ilgari filosofiyada intuitsiya biluvchilik faoliyatining alohida formasi dyeb qaralgan.

Masalan, SHarq filosofiyasida Intuitsiyani payg'ambarlarga xos bo'lgan maxsus bilim usuli sifatida talqin etilib, u ilg'or mutaffakirlar Farobiy, Byeruniylar tomonidan tanqid qilingan. Intuitsiyaga haqiqatni ochishning birdan-bir va yagona yo'li dyeb qarash mumkin.

Badiiy ijodni ongsiz jarayon dyeb bilish, ushbu myetod asoschilarining asosiy printsiplari bo'ldi. Ijodda onglilikni, tafakkur va tajribaning rolini inkor etadi. Ijod

jarayonini o'rganish, bugungi kundagi adabiyotshunoslikning asosiy myetodi sanalgan.

Formalizm myetodi.

G.Zampyer, A.Rigallarning formalizmga qo'shgan hissalarini katta. bordir. Formalizm o'z nomi bilan badiiy adabiyotni o'rganishda faqat formaga e'tibor byeradi. Badiiy asarni o'rganishda ayrim ramziy obrazlarni izohlash bilan chyeklanadi. Formalistlar har qanday nazariy kriteriyalarni inkor etadilar. Qo'pincha ular asarning yechimini analiz qilish, tasvir vositalarini ta'kidlash, ta'riflash bilan chyeklanadilar.

Strukturalizm yaqinda kyelib chiqqan ijodiy myetod bo'lib, ular badiiy asarning strukturasini undagi tovushlar tarkibi, miqdori, joylashish o'rni, tartibi bilan mashg'ul bo'ladilar.

Strukturalizm ma'lum darajada adabiyotning ayrim qonuniyatlarini ochib byeradi. Strukturalizmning asosiy yetakchilari R.Bart, TS.Psodyerov, R.YAkobson, YU.Lotmonlar bu myetodning qator ijobiy xususiyatlarini ko'rsatib byerishgan. Strukturalizm formalizmning tyexnika va kibiynyetikaga oid hozirgi kirinishi ekanligi e'tirof etishgan.

Ilmiy tushunchalar va badiiy vositalarni matyematik vositalar bilan aniq sistyemalashtirishga urinishi zarurligi bugungi adabiyotshunoslik fanining ehtiyojiga aylanib bormoqda. Fan tyehnika taraqqiyotini hozirgi bosqichda adabiyotshunoslikning ayrim masalalarini tadqiqi qilishda komppyyuter hamda matyematik vositalar imkoniyatlaridan foydalanish va uni amalga oshirish ushbu myetodni asosiy funktsyaisi hisoblanadi. Bu myetodning adabiyotshunoslik fanini taraqqiy etishida xizmatlari katta.

SHunday qilib, badiiy adabiyotning rivojida yuqoridagi myetodlarning o'z o'rni bor.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Psixoanalitik myetod nima?
2. Uni badiiy asar tahlilidagi o'rni qanday?
3. Intuitivsum myetodi qanday paydo bo'lgan?
 1. Bu myetodning yetakchi xususiyati nimada?
 2. Formamum myetodi qanday myetod sanaladi?
 3. Strukturalizm myetodi asoschilari kimlar?
 4. Ular qanday g'oyani ilgari suradilar?
 5. Zamonaviy adabiyotshunoslikda eng yetakchi myetod qaysi?
 6. Strukturalizm myetodi nima uchun bugungi kunda e'tibor kuchaydi.
 7. Ushbu myetodlar haqidagi sizning fikringiz qanday?

MAVZU: SHARQ MAMLAKATLARIDA ADABIY-TARIXIY QARASHLAR, NAZARIY FIKRLARNING RIVOJLANISHI

R E J A

1. SHarqda adabiy estyetik fikrning paydo bo'lishi
2. Qadimgi Xitoydagi estyetik qarash.
3. Markaziy Osiyo va O'zbyekistonda adabiy-tanqidiy tafakkurning paydo bo'lishi.
4. A.Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari.

San'atda tarbiyaviy ahamiyatning borligi san'at va san'atkorning oldiga talablar qo'yadi. Bu talablar esa mazmun va shakl birligi, mazmun boyligi va g'oyaviy masalalarning qo'yilishidan iborat. Ijodda badiiy fantaziyaning roliga alohida e'tibor byerilgan. Qadimgi Hind estyetikasida dramaturgiyaning nazariy masalalariga alohida e'tibor byerilgan. Qadimgi Xitoy estyetikasi. Qadimgi Hitoyda - Konfutsiychilik g'oyaviy oqimi mavjud edi. Buning asoschisi Konfutsiy edi. U eramizdan oldingi 551-479 yillarda yashab ijod etdi. Konfutsiyning fikricha, inson taqdirini osmon byelgilaydi. Odamlarni ikki guruhga; baland va past odamlarga ajratib qo'yadi. Buni o'zlashtirishni iloxi yo'q dyeb baholaydi. Dyemak, adabiyot badiiy asarni in'ikosi ekan xuddi shu xususiyatni adabiyotda mavjudligi ham ta'kidlanadi.

Ularning fikricha, adabiyotga idyealistik estyetika nuqtai-nazaridan qaralishi tufayli san'atga byefoyda ermak sifatida qarashgan. G'o'zallikning ma'rifiy, tarbiyaviy va estyetik rolini inkor etadilar. Biroq adabiyotning haqqoniyligi, mahorati masalalasiga alohida e'tibor byerishgan. Markaziy Osiyo va O'zbyekistonda adabiy-tanqidiy tafakkurning paydo bo'lishi. Abu Ali Ibn Sino, Abdulla Ibn Muslim Dinovariy, Zamaxshariy, YUsof Sakkokiy risolalarida shye'riyat qonunlariga. jumladan aruz nazariyasiga oid qator nazariyalar yaratadilar. YUsof Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Jurjoniyning "Asror ul balog'a" (ilmiy bayonda mazmun va shakl birligi xususida fikr yuritiladi).

"- Eng yaxshi ma'noni o'z tabiati va o'z ixtiyoriga qo'y" - dyeb yuritiladi.

YUsof Xos Hojib badiiy so'z va san'atkorning roliga yuksak baho byeradi. "Ko'p so'zidan foyda ko'rmaysan, ko'p so'zni so'zlama, oz so'zla"- dyeb ixchamlikka chaqiradi. Ayniqsa, Mir Alishyer Navoiy o'zining ilmiy asarlari va ilmiy- izchil qarashlari bilan adabiyot masalalariga kyeng to'xtalgan. Navoiy adabiyotni jamiyatdagi rolini ta'kidlaydi. "Mahbub-ul qulub" asarida shoirlarning nomini ehtirom bilan tilga oladi. Fikriy sayozlik, badiiy xomlikka qarshi kurashadi. Ayniqsa, Navoiy to'g'ri so'zlashni, ularni byezamasdan aytishni talab qiladi. San'atkordan muhim muammolarni ko'rsatib byerishni talab etadi. Voqyealarni hissiz aks ettirishni kyechirmaydi. Uning fikricha san'atkor borliqni tasvirlabgina qolmay, unga o'z mushohadalarini ham qo'shib byerishini talab etadi. Navoiy o'zining salaflarining ijodiga tanqidiy munosabatda bo'ldi. Mazmun va shakl birligi masalasiga alohida e'tibor byeradi. SHaklning mukammalligi asarning badiiy qimmatini oshirishiga e'tiborni qaratadi.

Nazmda ham asl anga moniy durur.

Bo'lsin aning surati har nyedurur

Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,

Axli maoniy qoshida xub emas.

Navoiy xalq tilining xuquqlari, rivoji uchun kurashdi. U tilni tafakkurni ifodalashdagi yagona aloqa vositasi dyeb biladi. So'zni gavharga, ongni dyengizga, san'atkorni g'ovvosga o'xshatadi. Navoiy tilni kyelib chiqishini payg'ambarga bog'laydi. SHye'riy san'atni prozadan ustun qo'yadi. Satirani munosib baholasa ham, satirada aniq shaxslar ko'rsatilishi mumkin emas dyeydi.

SHunday qilib O'rta Osiyoda shu tartibda adabiy tanqidning kurtaklari paydo bo'ldi.

Qo'shimcha

A.Navoiyning "Hayratul-abror" dostonida nazmning xususiyatlari haqida gapirilar ekan, badiiy so'zning kishilarga ta'sir kuchi g'oyat katta ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan. Badiiy so'z hayot haqiqatini, katta mazmunini ifodalasa, hatto toshni ham suv yanglig' eritishi, ya'ni eshonlarga juda kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin, dyegan ma'nosini ifodalab yozadi. So'zning ta'siri, uning qudratiga alohida baho byeradi.

Nuqta su(v) yanglig' eritur josim

Topsa haqiqat o'tidin chasini

Navoiyning "Myezon-ul avzon" "Hayratul-abror" asarlarida so'z va uning qo'drati haqida alohida ma'lumot byeriladi. Boburning "Muxtasar" risolasida, uning "Boburnoma" asarida dastlabki adabiy-tanqidiy qarashlar o'z ifodasini topgan.

SHuningdyek A.Navoiy "Majolisun-nafois" tazkirasini birinchi marta 1491 yilda tuzdi. Bu tazkirasida XV asrdagi adabiy hayot manzarasini tasvirlaydi. A.Navoiy 459 shoirning zikr etishi XV asrda poeziya bilan shug'ullanuvchi kishilar xiyla ko'payganini ko'rsatadi. Navoiy badiiy so'z san'atining "Tarbiyaviy rolga yuksak baho byergan. YOzuvchilarning xulq atvoriga ham katta e'tibor byeradi. Masalan, Mavlono Sohib Balxiy ta'magir bo'lib, fozillar oldida obru-e'tibori yo'q edi. So'zning buyukligi haqida o'zining ilmiy qarashlarini bildiradi.

Jumladan, "Myezon-ul avzon"da Fyeruzning bir-biriga yaqin vazn turkumlari bo'lib, bu turkumlar bahr dyeb yuritilishi, bahrlar baytdagi ruknlarning miqdori bilan birga aytiladi. Masalan, ramali murabba turt ruknli ramal, ramali musaddas - olti ruknli ramal, ramali musamman-sakkiz ruknli ramal va boshqalar hakida fikr yuritiladi. SHunday qilib A.Navoiy ushbu asari bilan o'zbyek adabiyotshunosligiga munosib hissa qo'shdi. SHarq mamlakatlaridagi adabiy tanqidiy qarashlar shu asosda shakllandi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. SHarq mamlakatlarida adabiy tanqidiy qarashlar qanday shaklda bo'lgan?
2. SHarqda qachondan boshlab bu soha rivojlandi?
3. Uning asoschilaridan kimlarni bilasiz?
4. Eng siz uchun qadrliroq bo'lgan qarash qaysi?
5. Qadimgi Xitoydagi estyetik qarash qanday edi?
6. Markaziy Osiyo va O'zbyekiston adabiy-tanqidiy tafakkur qanday taraqqiy etdi?
7. A.Navoiy va uning zamondoshlarining adabiy tanqidiy qarashlariga unosabatingiz qanday?
8. Navoiyning aruz shye'riy sistyemasiga oid qanday kitobni bilasiz?
9. Jahon adabiy-tanqidchiligiida sharq tafakkur tarixida qanday o'rni bor?
10. Siz yana qanday adabiy-tanqidiy qarashlarini bilasiz?

MAVZU: BADIY ADABIYOTNING SPYETSIFIK XUSUSIYATI

R E J A

1. Adabiyotning spyetsifikasi adabiyot nazariyasining muhim masalasi ekanligi.
2. Badiylik adabiyotning spyetsifik xususiyati ekanligi
3. Obrazlilik adabiyotning yetakchi spyetsifikasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.Abdurahmonov. O'zbyek satirasi
2. T.Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish kursidan o'quv myetodik qo'llanma
3. Adabiyot nazariyasi 1 tom
4. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi,
5. Adabiyotshunoslik tyerminlarining ruscha-o'zbyekcha izoxli lug'ati.

TAYANCH IBORALAR

1. Spyetsifika
2. Obrazlilik
3. Ommaboplik
4. Badiylik

Adabiyotning spyetsifikasi adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasining eng muhim murakkab masalasidir. U adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasiga oid turli asarlarda turlicha yoritiladi. Ba'zilar qiralar kyeng, ba'zilar esa juda tor ma'noda talqin etiladi. Ammo bu asarlarning hammasida adabiyotning spyetsifikasiga doir masalalar doirasi tilga olinadi.

Adabiyotning spyetsifikasi munosabati bilan tilga olinadigan xususiyatlarning eng birinchisi - insonshunoslikdir. Har bir badiiy asarni o'qigandan kyeyin zyehtimizda asarda tasvir etilgan kishilarning obrazi qoladi. A.Navoiy dostonlarini o'qib Farhod, SHirin, Layli, Majnun, Iskandar, Bahrom obrazlarini eslab qolamiz. G'ofir, Jamila, Onyegin, Otabyek, Kumush, Ra'no, Anvar, Yo'lchi, Gamlyet, Lir, YAgO, Otyellolarga o'xshash ko'p kishilarning tasviri bizning ongimizda badiiy adabiyot o'qishning dastlabki va eng natijasi bo'lib saqlanadi.

YOzuvchi har bir davr va konkryet tarixiy sharoitning mahsuloti bo'lgan insonni tyekshiradi, uning ruhiy holatlariga kiradi. ichki dunyosi haqida bizga aniq va ravshan tasavvur byeradi. Bu vazifani badiiy adabiyot obraz yaratish yo'li bilan bajaradi. Obraz - insonning ozmi ko'pmi batafsil tasviri bo'lib, u hayotdagi odamning jo'n nusxasi emas, balki yozuvchining ma'lum davrda va sharoitda yashovchi inson haqidagi tasavvurining ifodasidir. Badiiy adabiyotda tasvir etilgan inson obrazi umumlashtiruvchi kuchga ega. Unda ma'lum davr va muhit kishisining eng muhim va xarakterli xususiyatlari mujassamlashgan. SHu sababli obrazlilik badiiy adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

YOzuvchi badiiy adabiyot inson obrazini va hayot manzarasini eng muhim xaraktyeri xususiyatlarini tasvirlab byerish uchun to'qimaga murojaat qiladi. Badiiy adabiyotning mazmuni hayotdagi hodisalarning jo'n nusxasi emas, balki hayotiy hodisalarga suyanib, ularni sotsial va estyetik idyeal nuqtai nazaridan baholab turib, san'atkorning fantaziyasi vositasi bilan yangidan yaratilgan, to'qib chiqarilgan hayot manzarasidir. Har bir yangi asar yozuvchi xayolida hayotiy tasavvurlardan paydo

bo'ladi. Badiiy to'qima yozuvchiga hayotni tasodifiy narsalardan tozalab, uning mohiyati haqida eng to'g'ri tasavvur byerishga qo'maklashadi. Hayotiy matyeriallarni bunday tozalash, hayotiy hodisalarni, tasodiflarni emas, qonuniyatlarni badiiy tasvirlashga intilish, tipiklashtirish dyeyiladi. Hayotning tipiklashgan tasviri hayot haqida eng chukur eng to'g'ri tasavvur byeradi.

Nihoyat, badiiy adabiyotning yana bir spyetsifik xususiyati - unda so'zning alohida ahamiyatga egaligidir. Hayot haqidagi tasavvurlarni rassom bo'yoq va chiziqlar, kompozitor tovushlarning uzun-qisqaligi, past-balandligi, raqqosa harakatlar orqali ifoda etilgani sababli so'z badiiy adabiyotning asosiy matyeriali hisoblanadi. SHunday qilib inson shunoslik, obrazlilik, to'qimaning muhimligi, tasvirning tipiklashganligi va so'zning alohida roli badiiy adabiyot spyetsifikasining juda muhim ma'lumotlaridir. Lyekin bu sharoitlarni hisobga olish bilan adabiyotning spyetsifikasini tushunish vazifasi to'la ado etilgan bo'lmaydi. Nyegaki, ularning hammasi adabiyotning shakliga, ya'ni hayotiy in'ikos etishning usullariga oiddir, vaholanki adabiyotning spyetsifikasi faqat hayotni in'ikos ettirishning shakllari problyemasi emas, Byelinskiy adabiyotning xususiyatlarini gapirganda undagi badiylik bilan birga yana 2 jihatni qayd etgani sira tasodifiy emas. Bularning biri ommaviylik, ya'ni jamiyatning fikrini bir markazga to'plash va yana jamiyatga qaytarib byerish: ikkinchi adabiyot asarlarni butun xalq tomonidan emas, balki shu xalq ruhini ifoda etishga qodir konkryet shaxslar tomonidan yaratilishidir. Buyuk nazariyachi adabiyotning uchinchi xususiyati-badiylik ekani haqida gapiradi.

Adabiyot spyetsifikasini to'g'ri va to'la tushunish uchun Byelinskiyning ana shu ta'rifiga qaytish kyerak, chunki unda adabiyot spyetsifikasi uch tomonlama ochib byeriladi: adabiyot o'z vazifalari mazmuni shakli jihatidan spyetsifik xususiyatlarga egadir. Bu spyetsifik xususiyatlarning jami adabiyotning jamiyat hayotidagi rolini ta'min etadi. Adabiyot spyetsifikasini ana shu uch tomondan ko'zdan kyechirish orqaligina badiiy so'z san'atining spyetsifikasi haqida to'la va to'g'ri tasavvur hosil qilish mumkin. avvaldan shuni qayd etish kyerakki biz Byelinskiyning "adabiyotning spyetsifikasi - badiylikdir", - dyegan fikriga suyanamiz. Ko'pincha adabiyotshunoslar "adabiyotning spyetsifikasi obrazlilikdir", - dyeb hisoblaydilar. Bu tor talqindir, chunki obrazlilik umumiy inson tafakkurining xususiyatidir. Badiylik obrazlilikdan kyengroqdir. Badiylik - san'atning hamma turlarini shu jumladan adabiyotning eng muhim spyetsifik xususiyatidir. Badiylik tushunchasiga obrazlilik kiradi, lyekin badiylik faqatgina obrazlilikdan iborat emas. Adabiyotni badiiy qilgan narsa faqat obrazlilik bo'lmay, balki uning vazifalari mazmuni va shakliga taaluqli ko'pgina xususiyatlardir.

II. BADIY OBRAZ

Badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning boshqa turlaridan farqi shundaki, adabiyot hayotni obrazlar vositasida aks ettiradi. Obrazlilik adabiyotning san'at sifatidagi xususiyatidir. Obrazlilik - jonli manzaralar yordamida hayotni ta'sirli qilib tasvirlashdir. Adabiyot hayotni obrazli qilib tasvirlash uchun obrazlardan foydalanadi. Adabiyotni adabiyot qiladigan obraz. Obraz - hayotni badiiy ifodalash vositasi. Obrazda borliqning butun xususiyatlari yetakchi tomonlari yorqin tasvirlangan. Obraz hayot haqida to'g'ri ma'lumot byeradi. Obraz bo'lishi uchun quyidagi shartlar bor.

1. Jonlilik.

Jonli qilib tasvirlangan narsa ta'sirli bo'lsagina, obrazli bo'ladi.

2. Jonli qilib tasvirlangan narsaga yozuvchining orzu-armonlari qo'shilsagina yanada ta'sirli bo'ladi.

3. Narsa va hodisalar ma'lum bir maqsad bilan tasvirlanishi kyerak.

Badiiy obraz esa hayotdagi voqyealar, odamlarning nusxasi emas, balki umumlashtirgan qo'rinishi hisoblanadi.

Obraz – jonli ta'sirli qilib tasvirlangan umumlashtirilgan bo'lishi kyerak. SHuning uchun ham hyech qanday obrazni hayotga solishtirib bo'lmaydi. Obraz hayotdagi nusxalardan mukammalroq bo'ladi. "Obraz" atamasi 2 ma'noda tushuniladi. Tor ma'noda asardagi obrazlarni tushunish mumkin. Kyeng ma'noda yuqorida bayon etilgan 3 ta shartga binoan tasvirlangan narsalarni tushunamiz. Masalan, CH.Aytmatovning "Birinchi muallim" asarida odamlar Dumanni quvishadi Duman bir qo'raga kirib, ko'raning o'rtasidagi tyerakni chopa boshlaydi. Odamlar bir zum to'xtashadi. Asardagi tyerak obraz qilib olingan. Tyerak - eski zamon timsoli. SHu ma'noda obrazni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1. Inson obrazi.

2. Narsa va pryedmyetlar obrazi.

3. Tabiat obrazi.

4. So'z obrazi yoki obrazli so'zlar

Obrazli so'zlarga misol: Bu gapni eshitib kampirning tarvuzi qo'ltig'idan tushib kyetdi. Obraz turlari ichida inson obrazi yetakchi o'rin tutadi. Qolgan 4 turi yozuvchiga inson obrazini to'laroq aks ettirishga yordam byeradi. CHunki adabiyot - insonshunoslik. Lyekin adabiy asarda inson tasvirlanmagan joylar ham bor. U holda obrazning boshqa turlari tasvirlanishi mumkin. Inson tasvirlanmagan asarlarda insonlik nuqtai nazari bo'ladi. Masalan, Oybyekning "Na'matak" shye'rida na'matak obrazi orqali o'zining orzu-armonlarini tasvirlagan inson obrazi bor. Narsa va hodisalar 2 xil tasvirlanishi mumkin. Masalan CH.Aytmatovning "Alvido Gulsara" asarida Tanaboy oti o'layotsa - u bilan yonma-yon o'tirib, u bilan o'tgan hayotini eslaydi. YOKi masallarda ham inson obrazi bor. Obrazda ko'plab hodisalarning yetakchi xususiyati umumlashtiriladi. "Qutlug' qon" dagi Yo'lchi obrazida millionlab batarak dyehkonlarning taqdiri mujassamlashgan. Yo'lchi umumlashmalik bilan bir qatorda byetakror, hyech kinga o'xshamaydigan obraz. SHuning uchun bu obraz adabiyotda byebaho hisoblanadi. Birgina odam ham obraz uchun asos bo'lishi mumkin. Bunday obrazga namuna bo'lgan insonlarni prototip dyeyiladi. Prototipga ham tasvirda bir narsalar yopishtiriladi

Obrazning ijodiy myetodga ko'ra turi:

1. Mifologik obraz. Bular ilohiylashtirilgan obrazlar bo'lib, eng qadimgi asarlarda uchraydi. Bunday insonlar g'ayriinsoniy qudratga ega bo'ladi. "Avyesto" va "SHoxnoma" dagi dyev, axramanlar ...

2. Romantik obraz. Bular idyeallashtirilgan obrazlar bo'lib, yaxshilik bilan yomonlik mujassamlangan bo'ladi. Masalan, Farhod va SHirindagi Myehinbonu, Lyermonovning "Dyemon" poemasidagi Dyemon va x.k.

3. Romantik obraz. Ryeal hayotdagi odamlar sinf, guruhlarining xususyaitini o'zida jamlangan bo'ladi. Masalan, "Qutlug' qon" dagi Mirzakarimboy va Yo'lchi.

4. Xayoliy fantastik obrazlar. (Tarixda xalq tomonidan to'qilgan obrazlar). Go'ro'g'li, Alpomish Xayoliy fantastik obrazlarga Byelyayevning "Odam amfibiya" asaridagi Ixtiandr obrazi.

5. Afsonaviy obrazlar. Tarixiy zaminda xalq tomonidan to'qilgan obrazlar: Go'ro'g'li, Alpomish.

6. Ramziy obrazlar. G'.G'ulomning

Tong yaqin, tong yaqin oppoq tong yaqin dyeyish bilan yaxshi kunlar kyelishiga ishora kilyapti.

7. Hajviy-satirik obrazlar. Masalan, S.Ahmadning "Ufq" trilogiyasidagi Inoyat oqsoqol.

8. Mubolag'ali obrazlar. bular bo'rttirilgan bo'ladi. Masalan: A.Qodiriyning Kalvak Maxsum obrazi, Alpomish obrazi. Alpomishga 90 ta molning tyerisidan kovush tikilgan.

9. Grotyeskli obrazlar aqlga sig'maydigan darajada tasvirlanadi. MASALAN Gulivyer obrazi. U liliputlarni cho'ntagiga solib qo'yadi.

10. Majoziy (allyegorik) obrazlar - tushunchalar, hayvonlar pryedmyetlar inson o'rnida kyelib, insonni tasvirdaydi. Bunday obrazlar masallarda bo'ladi. Masalan, YUusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asarida O'zg'urmish sabr-qanoat timsoli, Oyto'ldi - mol-mulk, davlat timsoli. Hamzaning Jahon sarmoyasining oxirgi kuni", A.Ibrohimning "CHakana savdo" asarlarida shunday obrazlar bor. Adabiyotning obraz yaratish quroli - so'z, til. Til obraz yaratishda byeqiyos imkoniyatlarga ega, so'z vositasida har qanday holatni ifoda etish mumkin. Badiiy til - obrazli til. SHuning bilan u adabiy tildan farq qiladi. Obraz yaratishda yozuvchi tildagi tayyor obraz yaratish ryesurslaridan foydalanadi.

1. Maqol va matallardan

2. Frazyeologik iboralardan

3. Omonim, sinonim, antonimlardan

4. Arxaizmlardan

5. Diallyektalizmlardan

6. Varvarizmlardan

7. Jargonizmlardan

8. Bulgarizmlardan

9. Nyeologizmlardan

Adabiyotning umuman aytganda spyetsifik xususiyatiga quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin. Uning imkoniyati kyengligi, ommabopligi, zamonaviyligi va hozirjavobligidan iboratdir.

SHunday qilib, adabiyotning yuqoridagi spyetsifik xususiyati uning asosiy xususiyatini byelgilovchi omillardir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Spyetsifik dyeganda nimani tushunasiz?

2. Adabiyotning spyetsifik xususiyati nima?

3. Badiiylik adabiyotning spyetsifik xususiyati dyeganini qanday tushunasiz?

4. Obrazlilik nima?

5. Kyeng ma'noda obrazlilikni qanday tushunasiz?
6. Ommaboplik nima?
7. Adabiyot ommabop bo'lishi shartmi?
8. Adabiyotni imkoniyati kyengligini qanday tushunasiz?
9. Adabiyot so'z san'ati dyeganda nimani tushunasiz?
10. Adabiyotning qanday spyetsifik xususiyati bor?

MAVZU: BADIY ADABIYOTDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK

R E J A

1. Adabiyotda milliylik tushunchasi.
2. Milliylikni ifodalovchi vositalar.
3. Umuminsoniylik haqida ma'lumot
4. Umuminsoniylik milliylikka nisbatan kyeng tushuncha ekanligi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1978, 1979 yillar
2. I.Sulton Adabiyot nazariyasi. T. 1980 yil
3. M.Qo'shjonov Abdulla Qaxxor maxorati. Toshkyent 1989 yil

TAYANCH IBORALAR

1. Milliylik. 2. Umuminsoniylik 3. Asar tili. 4. Milliy xarakter

Badiiy adabiyotning milliyligi quyidagilarda aks etadi:

1. Asar tili va tasvir vositalarida.
2. Asarda aks ettirilgan milliy tafakkurda
3. Badiiy asarlarda aks etgan jug'rofiy muhit, tabiiy sharoit bilan bog'liq xususiyatlarda.
4. Badiiy asarda aks etgan sotsial iqtisodiy sharoit, xalqning xo'jalik mashg'uloti va u bilan bog'liq xususiyatlarda.
5. Badiiy asarda aks etgan xalqning turmushi, urf odatlari, ko'nikmalari va shular ta'sirida shakllangan xususiyatlarda.
6. Asarda aks etgan xalq hayotining muammolarida.
7. Milliy xarakter va psixologiyada

Har bir yozuvchi ma'lum davr ma'lum kasb vakili bo'lishdan tashqari, ma'lum millat vakili hamdir. U muayyan jug'rofiya, sotsial iqtisodiy hamda milliy muxitda yashab ijod qiladi. Uning tasavvurlari, ko'nikmalari, xarakterida ana shu sharoit o'z aksini topadi. Mana shu xususiyatlar yozuvchining asarlariga ham, ijodiga ham milliy o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Mana shu faktorlar adabiyotning milliy xususiyatlarni kyeltirib, chiqaradi.

Badiiy asarlarda xalqning butun adabiyotida o'sha xalq yashaydigan tabiiy shairot va jug'rofiy muhit aks etadi: o'sha xalq yashaydigan joyning o'simliklari, hayvonot dunyosi va boshqa ba'zi xususiyatlari o'z aksini topadi. Paxta kabi oppoq

dyeyish fakat paxta o'sadigan o'lkalar uchungina xos bo'lsa. SHotlandlarda yuzning oqligi paxtaga qiyoslab ta'riflangan.

Bizda oy yuzli dyemak maqto'v sanalsa, go'zallik byelgisi bo'lsa: Yevropada ayol yuzini oyga uxshatish go'zallik byelgisi bo'la olmaydi.

Ularda cho'ziroq yuz ya'ni bizda ot yuzli dyegan ma'nodagi yuz go'zallik bo'lib, go'zallik mye'yoriy Afrotida bilan qiyoslashda aniqlangan.

Adabiyotning milliy xususiyati jug'rofiy sharoit o'simliklar va hayvonlar dunyosi xalqning mashg'uloti turmush sharoitlari bilan bog'lik bo'ladi.

Kuzda plan to'lganda

To'y qo'shilar to'yingga.

Bunday motiv va uning asosida tug'ilgan poeziya faqat o'zbyeklardagina bo'lishi mumkin xolos.

SHu bilan birgalikda badiiy adabiyotda xalqning dardu xasrati orzu armonlari kurash va intilishlari ham o'z ifodasini topadi. Masalan: "Erk" qissasidagi inson erki xotin-qizlarning erki masalalari o'zbyek halqi hayoti uchun muhimdir. Biroq bu masalalar ruslar va boshqa Yevropa xalqlari uchun unchalik muhim bo'lmasligi mumkin. SHu boiskim bizda jiddiy qiziqish va shov-shuvlarga sabab bo'lgan ushbu qissa rus kitobxoni uchun kiziqarli bo'lmasligi turgan gap.

Adabiyotda xalqning turmush tarzi urf-odatlar ham aks etadi. Masalan "Utgan kunlar" romanidagi Kumushning to'yi.

Qahramonlar taqdiri ham urf-odatlar bilan bog'liq bo'ladi. Ana shu urf odatlar va marosimlar xalqning hayoti myehnati va kurashi jarayonida kyechedi. Qahramon ham ana shularga bog'lik bo'ladi ana shu odat va ko'nikmalarga ma'lum darajada rioya qiladi. Pyersonajlar xarakterida ham xalqning turmush tarzi urf odatlari ko'nikmalari aks etadi. M.SHoloxovning "Ochilgan qo'rik" romanida bosh sahifalardayoq SHchukarp buva Pityerdan kyelgan Davidovni iltifotsizlik bilan kutib oladi: "Myehmon tishlari kolmabdiku o'zlarining" - dyeydi chol unga. Bunday byetgachoparlik va ochiqqo'ngillik faqatgina ruslar milliy xarakteri uchun xosdir.

YOzuvchi ataylab milliy dyetallarni qidirib yurmaydi. Ular asarda tasvirlanayotgan hayot matyeriali bilan birgalikda yozuvchi tafakkuri orqali asarga o'z-o'ziga kirib kyeladi. Milliylik, dye' yozgan edi V.G.Byelinskiy, "YOzuvchining xizmati emas balki ijodning shoir tomonidan uncha zur byerishni talab qilmaydigan zaruriy shartidir. SHuning uchun ham asar badiiy jixatdan kanchalik yuksak bo'lsa u shunchalar milliydir, ham va ulug' san'atkorni milliyliги uchun maqtash ulug' astronomni o'z hisob kitoblaridagi karra jadvalida adao'maganligi uchun maqtashday gap... Milliylik shoirni ulug' kilmaydi balki buyuk talant shoirni millyi kiladi.... agarda asar badiiy bo'lsa. u uz-uzidan milliy buladi" (V.G.Byelinskiy Poln sbor. soch. t.V s.317) N.V.Gogolp ham milliylik tugrisida gapirib, "Milliylik sarafani (ayollar kiyimi) -p.r. (tasvirlashda emas)"-dyeydi. SHunday ekan milliylik xalqning ruxiy olamini chukur tasvirlashdadir. Xalq ruhini, psixologiyasini, milliy xarakterini ochish milliylikning muhim xususiyatidir. Biroq milliy xarakter qotib qolgan narsa emas. U sharoit o'zgarishi bilan uzgarib rivojlanib, takomillashib boradi. SHuning

uchun bir davrini tasvirlovchi asar qahramonlari xaraktyeri milliy xususiyatlari uchun ham to'la muvofiq kelyomasligi mumkin.

SHu bilan birgalikda bir davr san'atkori asaridagi milliy xarakterlar boshka davr san'atkori asarida tasvirlangan milliy xarakter bilan bir xil bo'lmasligi ham tabiiydir. Xarakterda faqat milliy xususiyatlarga emas, shu bilan birga sotsial-sinfi, individual xususiyatlar ham aks etadi. Yulchi bilan tog'asi Mirzakarimboydagi qarindosh-urug'lik, myehmondo'stlik xususiyatlar xarakterlarning milliylikni byelgilasada, xuddi shu milliy xarakter xususiyatlarida sinfiy qirralar aniq namoyon bo'ladi.

- A. *Тарихий шароит билан бирликда олинган адабий маҳсулот ва унинг яратилиш жараёни
- B. Буюк ёзувчиларнинг фикрлари, адабий танқид, адабий фикрлари
- C. Ёзувчиларнинг асарлари, ўтмиш адабий жараён
- D. Сўз санъати, адабиётнинг жанрлари

2. “Адабиёт” атамасининг тор маъносини аниқланг?

- A. *Бадиий асар
- B. китоблар, брошюралар, мақолалар
- C. қишлоқ хўжалиги, техника, медицина, сиёсатга доир асарлар жами
- D. “Адабиётшуносликка кириш”

3. “Литература” терминини ким илмий асослаган ва махсус маънода қўллаган?

- A. *В.Белинский
- B. Аристотел
- C. Буало
- D. Дидро

4. “Мавлоно Лутфий ўз замонининг маликул каломи эрди, форсий ва туркийда назири йўқ эрди, аммо туркийда шухрати кўпроқ эрди ва туркча девони машхурдир...” мулоҳазаларини А.Навоий қандай шаклда айтган?

- A. *“Мажолис ун нафоис” тазкирасида айтган
- B. Адабий анжуманда, йиғинда оғзаки айтган
- C. “Хамса” бадиий асарида ёзган
- D. Тарихай-мемуар асарда айтган

5. “Ғоясиз санъат-мурданинг ўзидир” фикрлари кимнинг қайси асарида олинган?

- A. *В.Г.Белинскийнинг “Танланган асарлар”идан
- B. Н.А.Добролюбовнинг “Ҳақиқий кун қачон келади” асарида
- C. Н.Г.Чернышевскийнинг “Санъатнинг воқеликка эстетик муносабати” асарида
- D. Т.Бобоевнинг “Адабиётшуносликка кириш” қўлланмасида

6. Адабиётшуносликнинг қўшимча соҳаларини аниқланг.

- A. *манбашунослик, китобшунослик, матншунослик
- B. тазкирачилик, мемуарлик
- C. танқидчилик, тарихшунослик
- D. эстетика, этика, педагогика

7. Адабий танқиднинг ўзига хос хусусиятларини топинг.

- A. *адабий жараённинг янги асарларини, муҳим муаммоларини ҳозирги куннинг ижтимоий-сиёсий талаблари асосида таҳлил қилади, китобхон ва асар ўртасида кўприк вазифасини ўтайди
- B. турли даврларда яратилган ва биринчи манба ҳисобланган асарларни ўрганади

С. турли хил янги асарларни тематик ва хронологик рўйхатини тузади, таҳлил қилади

Д. адабиётнинг моҳияти, вазифалари ва тараққиётини ўрганади

8.Ҳамид Сулаймон, Солиҳ Муталлибов, Порсо Шамсиев, Юсуф Султонов, Ваҳоб Рўзиматов каби олимларнинг қайси соҳадаги хизматлари каттадир?

А. *Ўзбек адабиёти тарихи

В. Ўзбек адабий танқиди

С. Адабиёт библиографиясини яратиш

Д. Текстология фанида

9.Атрубция фани нимани ўргатади?

А. *автори ноъмалум асарнинг муаллифини, ёзилган жойи ва вақтини аниқлаш

В. фольклор асарлар яратиш тарихини

С. асарнинг асл нусхасини тиклаш

Д. асарларни илмий-танқидий матнларни тайёрлашни

10.“Адабиётшуносликка кириш” дарслиklarининг авторларини аниқланг.

А. *Н.Шукуров, Н.Хотамов, Ш.Холматов, М.Маҳмудов, Т.Бобоев

В. Н.Маллаев, В.Абдуллаев, Ғ.Каримов

С. И.Султонов, Х.Дониёров,С.Мирзаев

Д. О.Шарафиддинов, У.Норматов, В.Раҳмонов

11.Ижтимоий онгга нималар киради?

А. *Қарашлар, тасаввурлар, ғоялар, ахлоқ, дин, фалсафа, адабиёт ва ш.к

В. моддий неъматларни ишлаб чиқариш

С. Ишлаб чиқариш жараёнида вужудга келган жараёнлар

Д. Ҳаёт, объектив борлиқ, ижтимоий турмуш

12.Санъатнинг турларини аниқланг.

А. *архитектура, музика, кино

В. химия,физика,математика

С. тарих, фалсафа,ахлоқ

Д. механика,биология, анатомия

13.“Поэзия эркин инсон сўзида ифодаланади, сўз эса-ҳам товуш, ҳам картина, ҳам аниқ ва равшан айтилган тасаввурдир”,-деган фикр кимнинг қайси асарида олинган?

А. *Белинский “Поэзиянинг хил ва турларга бўлиниши”

В. Аристотел “Риторика”

С. Аристотел “Поэтика”

Д. М.Горкий “Тема тўғрисида”

14.Адабиётнинг бош предмети нима?

А. *инсон

В. ижтимоий ҳаёт

С. табиат

Д. худолар,хайвонлар дунёси

15.Адабиётнинг вазифаси нима?

А. *Одамни завқлантириш

- В. Ҳаётий муносабатларни тасвирлаш
- С. Меҳнатни улуғлаш
- Д. Инсонни тарбиялаш

16. “Образ тўқима ёрдамида яратилган ва эстетик қиймат касб этган инсон ҳаётининг умумлашма ва айти чокда конкрет манзарасидир” таърифи кимники?

- А. *Т.Бобоевники
- В. И.Султонники
- С. Н.Шукуров
- Д. Ф.Головеченко

17. Образнинг асосий хусусиятларини аниқланг.

- А. *умумлашмалик, индивидуаллик, бадиий тўқима, эмоционаллик
- В. тасвир, нусха, восита, санъат, шахслар
- С. бадиий тил, предмет, адабий қаҳрамон, лирик қаҳрамон
- Д. пейзаж, интерер тасвири, ҳаёт тасвири, тип

18. Бадиий характер нима?

- А. *ўзига хос психологик белгиларга эга образ
- В. асарда бир-икки “йилт” этиб кўринадиган образ
- С. асардаги қаҳрамоннинг хусусияти, белгиси
- Д. маълум ирода йўналишига ва индивидуал психологик хусусиятларга эга бўлган, асарда катта “нагрузка” ташувчи шахс образ

19. “Тип” терминининг маъносини топинг.

- А. *из, нусха, намуна, тамға
- В. хусусият, белги
- С. илк, дастлабки, бошланғич
- Д. маъшуқа, ошиқ, рамз

20. Калвак Маҳзум (“Калвак Маҳзумнинг хотира дафтарида”), Қори Ишканба (“Судхўрнинг ўлими”), Мулла Дилкаш (“Ҳийлаи шаърий”) кабилар образнинг қайси турига мансуб?

- А. *сатирик
- В. романтик образлар
- С. афсонавий
- Д. символик образ

21. Фарҳод, Ширин, Баҳром, Дилором, Лайли, Мажнун, Искандар (“Ҳамса”) образларининг турини аниқланг?

- А. *романтик образлар
- В. ҳаёлий-фантастик
- С. мифологик
- Д. символик

22. Саида, Қаландаров, Козимбек, Меҳри, Зулфиқоров, Умида (“Синчалак”), Қози, Хидоятхон, Мулла Дўст (“Майсаранинг иши”), Йўлчи, Гулнор, Мирзакаримбой (“Қутлуғ қон”), образларининг қайсилари эпизодик образлар сирасига киради?

- А. *Козимбек, Меҳри, Зулфиқоров, Умида

- В. Саида, Қаландаров
- С. Ҳидоятхон, Мулла Дўст
- Д. Йўлчи, Гулнор

23. Шоир билан тарихчини солиштириб, шоирни топинг.

- А. *бўлиши мумкин бўлган ҳаётни, инсонни яхлит ва жонли тасвирлайди
- В. ҳақиқатдан бўлиб ўтган нарсалар ҳақида ёзади
- С. хусусий нарсалар ҳақида ҳикоя қилади
- Д. тарихни, турмушни, ҳаётни аниқ маълумотлар билан кўрсатади

24. “Бадий адабиёт-инсоншуносликдир” таърифининг эгаси ким?

- А. *Чернишевский
- В. Аристотел
- С. Белинский
- Д. Гегел

25. Образлилик нима?

- А. *ҳаётни, инсонни завқ қиладиган даражада тасвирлаш
- В. тасвирнинг ҳаққонийлиги, фактнинг аниқлиги
- С. ҳақиқатдан бўлиб ўтган нарсаларни акслантириш
- Д. сюжет ва композициянинг мукамаллиги

26. Типикликнинг икки тури мавжуд. Улар қайсилар?

- А. *характер ва шароит мантиқларини типиклаштириш
- В. ижобий ва салбий қаҳрамонларни типиклаштириш
- С. сатирик ва юмористик образларни типиклаштириш
- Д. минглаб кишиларга хос хусусиятларни, яқка ҳодисадаги ҳал этувчи ва доимий аломатларни умумлаштириш

27. Кенг маънодаги образ тушунчасини топинг?

- А. *ёзувчи ёки персонаж қўлланган айрим ифодалар, образли сўзлар назарда тутилади
- В. ўсимлик ва жониворларнинг умумлаштирилган картинаси тушунилади
- С. ҳаёт ва табиат манзараларининг конкретлаштириб тасвириланишига айтилади
- Д. бадий асарда акс этган воқеликнинг яхлит бўлаги акс этади

28. Тор маънодаги образ тушунчасини аниқланг?

- А. *индивидуал шахс сифатида тасвирланган тасаввур
- В. асарда акс эттирилган воқеликнинг яхлит бўлаги
- С. ҳаёт ва табиат манзараларининг конкретлаштириб тасвириланишига айтилади
- Д. ёзувчи ёки персонаж қўлланган айрим ифодалар, образли сўзлар назарда тутилади

29. Отабек, Мутал, Уста Олим, Ойбодок, Офтоб ойим, Ўзбек ойим (“Ўтган кунлар”)нинг қай бири бош образ саналади?

- А. *Отабек
- В. Уста Олим
- С. Офтоб ойим
- Д. Мутал

30.Отабек, Кумуш, Ҳомид, Содик, Офтоб ойим, Ўзбек ойим, Уста Олим, Мирзакарим қутидор, Худоёр, Мусулмонқул (“Ўтган кунлар”) образларининг қайсилари тарихий шахслар образидир?

- A. *Худоёр, Мусулмонқул
- B. Отабек, Кумуш
- C. Ҳомид, Содик
- D. Офтоб ойим, Ўзбек ойим

31.Қадимги Шарқда яратилган Қаяумарс, Жамшид, Митра, “Минг бир кеча”даги ва “Фарҳод ва Ширин” достонидаги девлар-қайси образларга мисол бўла олади?

- A. *мифологик
- B. романтик
- C. символик
- D. афсонавий

32.Отабек, Кумуш, Зайнаб, Саодат, Хушрўй (“Ўтган кунлар”)лар адабий турлар тақозосига кўра қайси хилга киради?

- A. *Эпик образлар
- B. Лирик
- C. Драматик образлар
- D. Лиро-эпик образлар

33.Типиклаштириш қайси икки жараёндан иборат?

- A. *Умумлаштириш ва индивидуаллаштириш
- B. Социал тип, адабий тип
- C. Ижтимоий куч, индивидуал ҳолат
- D. Қонунийлик, табиийлик

34.Типиклаштириш қайси метод ва оқимларга хос?

- A. *ҳамма метод ва оқимларга хос
- B. классицизмга
- C. романтизмга
- D. модернизмга

35.Бадиий адабиётнинг биринчи элементи нима?

- A. *нутқ, тил
- B. ритм, оҳанг
- C. композиция
- D. бадиий ғоя

36.Образ яратишнинг қайси йўллари бор?

- A. *жамлаш, прототип
- B. ижобий, салбий
- C. юмористик, сатирик
- D. романтик, реалистик

37.“Характер” терминининг маъносини аниқланг.

- A. *хусусият, белги
- B. из, нусха
- C. тамға, намуна
- D. дастлабки, бошланғич

38.Илмий, фалсафий, сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий, эстетик, диний ва шу каби қарашлар мазмунини қандай ном билан юритамиз?

- A. *дунёқараш
- B. тенденция
- C. ғоявийлик
- D. талант

39.“Сюжет” сўзининг маъноси нима?

- A. *предмет, мазмун
- B. асосида тузувчи
- C. ёзув, тасвир
- D. ҳис-туйғу, воқеа

40.Бадий асар тақдирийин ҳал қилувчи негиз нима?

- A. *барчаси
- B. сюжет
- C. композиция
- D. мазмун

41.Доно, нодон, киш-ёз, кеча-кундуз каби антонимларнинг турини топинг?

- A. *Лексик антонимлар
- B. Фразеологик антонимлар
- C. Антонимлар
- D. Лексик фразеологик антонимлар

42.“Ўртоқларим, қўлга олсам торимни, Бахтиёр эслайдирман ёримни”,- байтда қайси санъат ишлатилган?

- A. *Инверсия
- B. Муболаға
- C. Метонимия
- D. Сенокдоха

43.“Узун бўйли, қора чўтир юзли, чоғир кўзли, чувак соқол, ўттиз беш ёшларда бўлган кўримсиз киши” (“Ўтган кунлар”) парчасида қайси санъатни кўрасиз?

- A. *Ўхшатиш
- B. Сенокдоха
- C. Метономия
- D. Сифатлаш

44.Махсус лексик ресурсларни топинг.

- A. *Архаизм, неологизм, жаргон сўзлар, омоним
- B. Метофора, аллегория, эпитет
- C. Жонлантириш, ўхшатиш, литота
- D. Лаконизм, ўхшатиш, символ

45.“Зайнаб ва Омон” (Ҳ.Олимжон) достонининг бош мавзуси нима?

- A. *Садоқат
- B. Янгилик билан эскилик кураши
- C. Инсонийлик
- D. Янгича севги

46.“Зайнаб ва Омон” (Ҳ.Олимжон) достонининг ёрдамчи мавзуларини аниқланг.

- A. *Инсонийлик, юксак онглилик, янгилик билан эскилик кураши, садоқат, вафо
- B. Коллектив меҳнат
- C. Коллектив турмуш
- D. Колхоз ҳаёти

47.Ойбекнинг “Навоий”, П.Қодировнинг “Юлдузли тунлар”, О.Ёқубовнинг “Улуғбек хазинаси” асарлари сюжетини аниқланг.

- A. *Ҳаётий сюжет
- B. Сайёр сюжет
- C. Фантастик сюжет
- D. Леро-эпик сюжет

48.Ёзувчининг ҳикоя ичида ҳикоя бериш усули (“Минг бир кеча”, “Сабъан сайёр”) қандай номланади?

- A. *Эпик тасвир
- B. Қисқартма эпизод
- C. Лирик чекиниш
- D. Композицион тасвирлаш

49.“Отнинг ўлими, итнинг байрами” (“Ўғри”) мақоли қайси композицион воситага мисол бўла олади?

- A. *Эпиграфга
- B. Сарлавҳага
- C. Лирик чекинишга
- D. Композицион қолиплашга

50.Асар сюжетининг ечимидан сўнг қаҳрамон ҳақида берилган маълумот (М., “Муқаддас” (О.Ёқубов) қайси экспозицияга киради?

- A. *Кечиктирилган экспозиция
- B. Ўғри экспозиция
- C. Сочма экспозиция
- D. Тескари экспозиция

51.Асар сюжетида тасвирланган воқеаларнинг ривожланиши натижасида юзага келган қаҳрамонларнинг узул-кесил ҳолати, улар ўртасидаги курашнинг хотимаси сюжетнинг қайси турига киради?

- A. *Ечим
- B. Эпилог
- C. Тугун
- D. Воқеа ривожи

52.Бадиий асар тили иккига бўлиб ўрганилади. Улар қайсилар?

- A. *Автор тили, персонажлар тили
- B. Адабий тил, бадиий тил
- C. Поэтик тил, умумхалқ тил
- D. Адабиёт тили, театр тили

53.Монолог ўз табиатига кўра қайси хилларга бўлинади?

- A. *Ички ва ташқи монолог

- В. Моно якка дегани
- С. Монолог бўлинмайди
- Д. Автор ва қаҳрамон монологи

54. “Бу кураш ҳаётнинг қонуни учун. Бу чорак асрнинг якуни учун” ушбу парчадаги “учун, учун” сўзлари такрори такрорнинг қайси турига киради?

- А. *Анафора
- В. Оддий такрор
- С. Асиндентон
- Д. Эпифора

55. Бўрттирилган тасвирни ўқувчи тасаввур қила олмайди, реал ҳаётда ҳам учрата олмайди

- А. *Иғрок
- В. Ўхшатиш
- С. Оддий муболаға
- Д. Таблиф

56. Уюшиқ бўлакларнинг сўз ва гапларнинг ҳеч бир боғловчиларсиз ўзаро жойлаштирилиши қандай аталади?

- А. *Анафора
- В. Инверсия
- С. Эпифора
- Д. Асиндентион

57. Шеър мусиқийлигини юзага келтирувчи асосий компонентни аниқланг?

- А. *Ритм, вазн, қофия, банд
- В. Поэтик синтаксис, интонация
- С. Пауза, урғу, фонетик воситалар
- Д. Турок, рукн, стопа

58. “Булутнинг чоклари сўкилди, Марварид доналари тўкилди” – шеърининг туроғини топинг.

- А. $*3+3+3=9$
- В. $6+3=9$
- С. $3+6=9$
- Д. $4+5=9$

59. “Ҳар юракнинг бир баҳори бор, Ҳар бир қалбда ишқ бўлар меҳмон...” шеърнинг туроқларини аниқланг.

- А. $*3+3+3=9$
- В. $5+4=9$
- С. $2+4+3=9$
- Д. $4+5=9$

60. “Куйида йиғлар эдим мен зор беморга, Энди йиғлар бари беморлар мен зорга”-байтда радиф борми?

- А. *Қофияси радифли ғазал
- В. Радиф аниқ эмас
- С. Радиф бор-беморга, зорга

D. Радиф йўқ

61.“Қаро кўзим келу мардумлиғ эмди фан қилғил, Кўзим қаросида мардум киби ватан қилғил”-матлаъдаги қофияни топинг

A. *Фан-ватан

B. Энди, киби

C. Мардумлиғ, мардум киби

D. Қилғил, қилғил

62.Икки мисрадан йигирма тўрт мисрагача шеърӣй бандлар бор. Унинг ўнлиги классик адабиётда қандай ном билан юритилади?

A. *Муашшар

B. мусаллас

C. Мутассаъ

D. Тасни

63.Ритмнинг луғавий маъноси нима?

A. *Ўлчов, тарози

B. Тузилиш

C. Аралашган

D. Вазндош, оҳангдош

64.Икки мисра оғир кўнглимга асли, Икки нарса учун йўқ менда бардош. Бири душманнинг шод қаҳқаҳаси, Бири-дўст кўзида милтилаган ёш. Ушбу такрорлар қандай номланади?

A. *Анафора

B. Параллелизм

C. Эпифора

D. Асипдентон

65.Қаёққа чекинасан? Борми кераксиз еринг? Не учун одам бўлдинг, Келмасанг душманга тенг. Ушбу парчада қайси поэтик унсур ишлатилган?

A. *Риторик сўроқ

B. Асиндентон

C. Риторик мурожаат

D. Параллелизм

66.“Оқ шеър” деганини қандай тушунасиз?

A. *Вазни, туроғи аниқ, қофиясиз шеър

B. Вазни, туроғи аниқ, сочма шеър

C. туроғи ноаниқ, минбар шеър

D. Вазни ҳам , туроғи ҳам ноаниқ шеър

67.“Келмади” радифли ғазалининг бош ғояси хулосаси (учинчи қисми) қайси байтда

A. *Учинчи байтда

B. Биринчи байтда

C. Бешинчи байтда

D. Еттинчи байтда

68.Ўзбек бармоқ ва аруз системаларининг ҳар бирига махсус монографиялар ёзган муаллиф ким?

- A. *И.Султон
- B. Н.Шукуров
- C. П.Қодиров
- D. У.Тўйчиев

69.Икки хил асл рукнлардан тузилган бахрларни топинг.

- A. *Ҳазаж, разаж
- B. Вофир, комил
- C. Мутадорик, мутавориб
- D. Мужтасс, ҳафиф, жадид

70.Арузнинг 7 доираси бор. Доираи муттафика қайси бахрлардан тузилган?

- A. Мутақориб, мутадорик
- B. Тавил, рамал
- C. Комил, Вофил
- D. Ҳазаж, ражаз

71.Арузда шеърнинг вазнини аниқловчи восита нима?

- A. *Бахрлар
- B. Унлиларнинг чўзиқ-қисқалиги
- C. Доиралар
- D. Тақти

72.Шеър муסיқийлигини юзага келтирувчи ёрдамчи компонентларни топинг.

- A. *Ритм, вазн, тuroқ
- B. Бўғин, ҳижо, ғоя
- C. Пауза, урғу, стопа
- D. Поэтик синтаксис, интонация

73.Ҳар банди етти мисрадан иборат шеърнинг номланишини аниқланг.

- A. *Мусабба
- B. Мусаддас
- C. Муашшар
- D. Мураббаъ

74.Шеъриятда кичик ритмик бўлақни аниқланг.

- A. *Бўғин
- B. Урғу
- C. Пауза
- D. Қофия

75.Шеър мисрасида ҳижоларнинг муайян бўлинишидан пайдо бўладиган ритмик бўлақни аниқланг.

- A. *Тuroқ
- B. Қофия
- C. Вазн
- D. Рукн

76.Агар жузв бир тўғри чизикдан иборат бўлса, у қандай ном билан юритилади?

A. *Фосила

B. Сабаб

C. Ватад

D. Сабаби ҳафиф

77. Агар жузв икки қисқа бўғиндан иборат бўлса, унинг номланиши қандай бўлади?

A. *Ватад

B. Фосила

C. Ватади мажмуа

D. Фосили кубро

78. Бир очик, бир ёпиқ жузвли бўғинлар қандай ном билан юритилади?

A. *Сабаби сақайл

B. Сабаб

C. Фосила

D. Ватади мажмуа

79. Ўзбек адабиётида бармоқ шеър системаси жаҳон халқлари поэзиясининг қайси шеърий системасига киради?

A. *Силлабик

B. Бирорта системага кирмайди

C. Силаба-тоник

D. Тоник

80. Силлабик шеърнинг бошқа шеърий системалардан фарқи нимада?

A. *Урғули ва урғусиз бўғинлар такрорига

B. Фарқи йўқ

C. Урғунинг бир қисмда келишига

D. Бўғинлар сонига

81. “Қофия” сўзининг маъносини топинг.

A. *Оҳанг, мусиқийлик

B. Зийнат

C. Ўлчов, вазн

D. Издан бориш, тизилиш

82. Аруздаги шеърларнинг ҳар байтидаги биринчи рукн қандай ном билан юритилади?

A. *Зарб

B. Ибтидо

C. Аруз

D. Садр

83. “Ритм” (грекча сўз)нинг маъносини топинг

A. *Тенг ўлчовлик

B. Парчаланган

C. Тизилган

D. Тартиблик

84. “Рукн” сўзининг маъносини аниқланг.

A. *Кесиш, парчалаш

B. Тузиш

- C. Накорат
- D. Устун, бурчак, негиз

85. Ҳар байтда рукнлар тўлиқ иштирок этса (кесик бўлмаса) қандай атаймиз

- A. *Махзуф
- B. Рамал
- C. Зарб
- D. Солим

86. Шеърнинг “бош энергияси”, бош аломати нима?

- A. *Ҳижо
- B. Вазн
- C. Туроқ
- D. Ритм

87. Отабек, Кумуш, Зайнаб, Саодат, Хушрўй (“Ўтган кунлар”)лар адабий турлар тақозосига кўра қайси хилга киради?

- A. *эпик образлар
- B. лирик образлар
- C. драматик образлар
- D. лиро-эпик образлар

88. Анор (А.Қахҳорнинг “Анор” ҳикояси), рўмолча (Шекспирнинг “Отелло”си) деталининг турини аниқланг?

- A. *предмет детал
- B. нутқий детал
- C. психологик детал
- D. рамзий детал

89. Тенденциозлик нима?

- A. *Асар ғоясига сингдирилган авторнинг тарафкашлиги
- B. Асар темасининг фалсафий-ахлоқий қиймати
- C. Бадиий ғоянинг ҳаққонийлиги
- D. Табиат ва жамият ҳақидаги тасаввур

90. “Менинг фикримча, реализм деталларнинг ҳаққонийлигидан ташқари, типик характерларнинг типик шароитларда ҳаққоний тасвирланишини ҳам тақозо этади” фикри кимнинг қайси асаридан олинган?

- A. *Ф.Энгелснинг 1888 йилда М.Гаркесга ёзган хатида
- B. К.Маркс ва Ф.Энгелснинг “Табиат диалектикаси”да
- C. В.Белинскийнинг “Поэзиянинг хил ва навларга бўлиниши”да
- D. Т.Бобоевнинг “Адабиётшунослик асослари”да

91. “Гуманизм” атамаси қайси тилдан олинган, маъноси нима?

- A. *лотинча сўз, инсонийлик
- B. русча сўз, эъзозлаш
- C. арабча сўз, ғамхўрлик
- D. французча сўз, тарафкашлик

92. Гуманистик адабиётнинг учта хусусиятини аниқланг?

- A. инсонни эъзозлаш, мадҳ этиш, адолатни, ҳурликни куйлаш, адабиёт воситаларини халққа яқинлаштириш
- B. Эъзозлаш, ғамхўрлик, тарафкашлик
- C. тарафини олиш, қайғуриш, севиш
- D. халқчиллик, гўзаллик, мадҳ этиш

93.Бадиий асарнинг шаклига қайси компонентлар киради?

- A. *сюжет, композиция, бадиий тил, тур, жанр ва ш.к.
- B. бадиий асарнинг ғоявийлиги
- C. бадиий асарнинг маъноси
- D. ҳаёт ҳақиқатини ўзида ифодалаган мазмун

94.Сюжет “...одамларнинг ўзаро алоқалари, улар ўртасидаги қарама-қаршиликлар, симпатия ва антипатиялар, умуман кишилар ўртасидаги муносабатлар, у ёки бу характернинг, типнинг тарихий ривожланиши, ташкил топиб боришидар” – деган таъриф кимники?

- A. *М.Горкийники
- B. В.Белинскийники
- C. П.Тимофеевники
- D. И.Султонники

95.“Эпилог” сўзининг маъносини топинг?

- A. сўнгги сўз
- B. дастлабки ҳолат
- C. олдинги сўз
- D. муқаддима

96.Сюжет бадиий адабиётнинг ҳамма турлари ва жанрларида учрайдими?

- A. *сюжети йўқ бадиий асар бўлмайди
- B. учрамайди
- C. лирик турда бўлмайди
- D. эпик турда учрайди

97.Конфликтни илк маротаба рўёбга чиқарувчи, сюжетни ривожланишига туртки берувчи сюжетнинг таркибий қисми қайсалигини аниқланг.

- A. *тугун
- B. кулминация
- C. воқеа ривож
- D. экспозиция

98.“Қутлуғ қон”даги Гуландом саргузашти, “Синчалак”даги Алибобо тақдири тасвири, “Ўтган кунлар”даги Уста Олим воқеаси – композициянинг қайси воситасига мисол бўла олади?

- A. *қисқартма эпизодга
- B. эпиграфга
- C. қолиплашга
- D. эпик тасвирга

99.Қайси тур ва жанрларда (рemarkаларни мустасно қилганда) автор нутқи бўлмайди?

- A. *драматик тур (драма, комедия, трагедия)

- В. эпик тур (роман, повест, қисса)
- С. лирик тур (шеър, мухаммас, сюжет)
- Д. лиро-эпик тур (баллада, масал)

100. С.Айнийнинг “Судхўрнинг ўлими” қиссасида типиклаштиришнинг қандай усули етакчи?

- А. *ҳажвий масхаралаш, бўрттириш усули
- В. романтик тасвир усули
- С. лирик тасвир усули
- Д. юмористик тасвир усули

ADABIYOTSHUNOSLIKKA OID ATAMALARNING IZOHI

5141100 – o'zbyek tili va adabiyoti bakalavrlari ixtisosliklari uchun
qo'llanma

KIRISH

Adabiyotshunoslikning quyidagi tarkibiy qismlari mavjud:

1. Adabiyot tarixi.
2. Adabiyot nazariyasi.
3. Adabiy tanqid.

1. **A d a b i y o t t a r i x i** - badiiy adabiyot tarqiyotini, yozuvchilarning hayoti va ijodini, alohida asarlarni o'rganadi. SHu bilan birga, adabiyot tarixi ijodiy myetodlarning paydo bo'lishi va taqdirini, har bir davr adabiyotining o'sha zamon bilan bog'liq xususiyatlarini ham o'rganadi, adabiyot faktlarini sistyemalashtirib, umumlashtiradi. Adabiyot tarqiyotida har bir asar har bir yozuvchining o'rnini byelgilab byeradi. Adabiyot tarixi alohida asarlarning tarixi va taqdirini ham o'rganadi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanining tarixi bor. Bu roman 20-yillarda qoralangan so'zoshi bilan chiqqan. So'ngra to'liq kitob bo'lib chiqdi. 50-yillarda va undan kyeyin syekin-asta oqlandi.

O'zbyek adabiyoti tarixi bundan ikki yarim, uch ming yil oldin paydo bo'ldi. "Avyesto"ning ham kirib kyelishi, kitob bo'lishiga 2700-2800 yil bo'ldi. 3000 yillik adabiyotimiz tarixining bo'limlari:

1. O'zbyek mumtoz adabiyoti (eng qadimgi davrdan X1X asr o'rtalarigacha).
2. XX asr o'zbyek adabiyoti (90-yillargacha)
3. Istiqlol davri adabiyoti (hozirgi kunlargacha).

Adabiyot tarixi har bir xalq adabiyoti taraqqiyotining o'sha xalq tarixi bilan bog'liq xususiyatlarini ochadi, uni boshqa xalqlar bilan solishtiradi, o'zaro aloqalarni qayd etadi, har bir xalq adabiyotining umuminsoniy madaniyat xazinasiga qo'shgan hissasini byelgilaydi.

Adabiyot tarixi badiiy adabiyotni tarixiy taraqqiyot jarayonida o'rganadi. Adabiyot tarixi adabiy hodisalar yig'indisidir, ya'ni badiiy asarlar, adabiyotning mohiyati, vazifasi va turlari haqidagi fikrlardan iborat. Turli joylarda bir davrda bir xil g'oya va janrlarning tug'ilishi tabiiydir.

G'arb adabiyotining quyidagi bosqichlari mavjuddir:

1. Qadimgi (antik).
2. Qadimdan o'rta asrga o'tish (ellinizm).
3. O'rta asrdan yangi zamonga o'tish (ryenyessans).
4. YAngidan eng yangiga o'tish.

Bularning har biri daho asarlar bilan nishonlangan.

Adabiyot tarixi dyeganda barcha xalqlarining adabiyot tarixi tushuniladi. Qirg'iz adabiyoti tarixi, ingliz, xitoy, arab, rus, olmon va hokazo. Ingliz adabiyoti tarixi dyeganda qayerda ingliz xalqi yashasa, o'sha yer adabiyoti tushuniladi. Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti bor. Bunda o'zbyek, qirg'iz, qozoq, tojik adabiyotlari jamuljam. YAna turkiy xalqlar adabiyoti ham bor. Bunga Sibirdan Markaziy Osiyogacha bo'lgan adabiyotlar kiradi. G'arbiy Ovrupo va hokazo adabiyoti bor. Umumjahon xalqlari adabiyoti tarixi ham bor.

Markaziy Osiyoda dastlab adabiyot tarixi tazkiralar tarzida yuzaga kyelgan. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Navoiyning "Majolis un-nafois" asarlarida adiblar to'g'risida biografik va bibliografik ma'lumotlar, asarlaridan ayrim namunalar kyeltiriladi.

Adabiyot tarixi faqat buyuk siymolarnigina o'rganib qolmasdan, adabiy jarayonda ishtirok etgan barcha ijodkorlar myerosini ham o'rganadi. CHunki buyuk cho'qqilarning paydo bo'lishida buyuklik darajasiga ko'tarilmasdan qolgan ijodkorlarning ham roli byeqiyosdir.

Adabiy oqimlar, maktablar, adabiy tashkilotlar ham adabiyot tarixining pryedmyetidir.

Adabiyot tarixi (istoriya lityeraturp1) atamasi 1659 yilda Frantsiyada paydo bo'ldi. X1X asrda adabiyot tarixi falsafa, ritorika, publitsistika, istoriografiya va adabiy tanqid tushunchalarini qamrab olgan.

Adabiyot tarixiga quyidagilar kiradi: konkryet adabiy asar, yozuvchi ijodi, oqim, adabiy bosqich, adabiy muassasalar, milliy adabiyot.

2. A d a b i y o t n a z a r i y a s i - badiiy adabiyotning qonun-qoidalarini, hayotni badiiy aks ettirish hamda adabiyot taraqqiyotining qonuniyatlarini to'g'risidagi fandır. Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning jamiyat taraqqiyotida o'ynagan roli, tur va janrlari, badiiy tasvir vositalarini o'rgatadi. Bu fan badiiy adabiyotning xususiyatlarini, ijtimoiy tabiati, vazifasi, borliqqa munosabati masalalari xususida ma'lumot byeradi. Ijodiy myetodlar, uslublar, an'ana va mahorat masalalari, shakl va mundarija, romantizm, ryealizm masalalari adabiyot nazariyasi fanining diqqat markazida turadi. Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning taraqqiyoti qonuniyatlarini, janrlarning xususiyatlari, badiiy til, uslub, shye'r tuzilishi, syujyet va kompozitsiya masalalari, tipiklashtirish kabilar bilan bog'liq holda o'rganadi. Bu jihatdan adabiyot nazariyasi umuman san'at qonuniyatlarini o'z ichiga olgan estyetika faniga yaqin turadi.

Adabiyot nazariyasi badiiy asarlarni tahlil qilish va baholash mye'yorlarini byelgilab byeradi. Adabiyot nazariyasi ommaning badiiy adabiyotni tushunishi va shu yo'l bilan kishilar didini o'stirishga xizmat qiladi.

Xo'sh, shunday ekan, adabiyot nazariyasi matyerialni qayerdan oladi?

Adabiyot nazarayasi o'z xulosalarini chiqarar ekan, avvalo:

- konkryet badiiy asarlarga, adabiy jarayonga, adabiyot tarixi matyeriali va ana shu badiiy adabiyotning taraqqiyot jarayoniga suyanadi;
- o'tmish va hozirning badiiy asarlar, yozuvchilar va adabiyot to'g'risidagi fikrlariga suyanadi;
- insoniyat badiiy dahosining eng nodir namunalariga suyanadi, eng mukammal taraqqiy etgan adabiyotlarning tajribasiga asoslanadi. Bu bilan birga adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning barcha namunalari, barcha xalqlar adabiyotlari yutuqlari tajribasini ham umumlashtirib, o'z qoidalarini boyitadi.

Adabiyot tarixi adabiyotning taraqqiyot yo'llarini o'rgansa, adabiyot nazariyasi adabiyotning taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganadi. Adabiyot tarixi Alishyer Navoiy qachon yashagan, dyegan savolga javob byersa, adabiyot nazariyasi Navoiy nima uchun XU asrda yashaganligiga javob byeradi. Adabiyot nazariyasi adabiy asarning xususiyatini, ichki tuzilishini o'rganadi. Ichki mazmunni adabiyot tarixi o'rganadi. Adabiyot nazariyasi soatsoz soatni qanday qilib buzib, tuzatsa, nazariya ham badiiy asarni o'shanday tyekshiradi. Fitratnikidan mukammalroq "Adabiyot nazariyasi" darsligini 1940 yilda I.Sulton yozgan. O'zbyekistonda adabiyot nazariyasi fan sifatida 1925-1926 yillarda paydo bo'ldi. U jahon mutafakkirlarining adabiyot nazariyasi haqidagi bilimlaridan paydo bo'ldi. Jumladan, Arastu "Poetika" asarini yozdi. Unda tragyediya nima, lirika nima, dyegan saollarga javob byerdi. Gyegyelp "Estyetika" (4 tomlik) asarini, X1X asrda V.Byelinskiy "Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi" haqida yozdi. Bunda u adabiyotni tur va janrlarga ajratadi.

SHarq adabiyotida nazariy fikrlar asosan X asrlardan boshlab yozilgan. Forobiy "SHye'r san'ati", Byeruniy "Osor ul-boqiya" va "Hindiston" asarlarida adabiyot haqida juda ko'p ma'lumotlar byerilgan. Masalan, hindlarning shye'r tuzilishi haqida ma'lumot byeriladi. Alishyer Navoiy "Myezon ul-avzon", Bobur "Muxtasar" kabi asarlarida adabiyot nazariyasining ba'zi bir masalalari (aruz, shye'rshunoslik) yoritiladi. XX asrgacha, ya'ni Gyegyelgacha adabiyot nazariyasini o'z ichiga olgan asar yozilmagan edi.

3. Adabiy tanqid - shu kungi adabiy jarayonni tahlil qiladi, paydo bo'layotgan badiiy asarlarni o'rganib, ularning adabiy jarayondagi o'rni va rolini, g'oyaviy-esthetik qimmatini byelgilaydi, kitobxonlarning ana shu asarlarini tushunish va baholashiga yordam byeradi, shu bilan badiiy adabiyot taraqqiyotiga, yozuvchilarning g'oyaviy-badiiy takomiliga ko'maklashadi. Adabiy tanqid yozuvchining o'zi tushunib yetmagan tomonlarni kashf etadi.

Kitobxonning saviyasi millat va jamiyatning aqliy va ma'naviy darajasi, adabiyot ilmi, adabiy tanqidning rivojlanganlik daraja-siga bog'liq. Adabiyotshunos S.Myeli ta'kidlaganidek, munaqqid qanchalik bilimdon va mulohazali bo'lsa, badiiy jihatdan bo'sh asar haqida o'z saviyasi darajasida fikr ayta olmaydi. Buyuk ijodgina zabardast, ulkan tanqidchilikni vujudga kyeltiradi va adabiyotni hurmat qilgan tanqidchi bo'sh asar haqida ijobiy fikr aytishdan o'zini saqlaydi. Bo'sh asar adabiyotni abgor, tanqidchini xor qiladi.

“Sadoi Turkiston” gazyetasining 1914 yil 19 noyabrdagi 48-sonida qo'qonlik Ahlullo Haybullo o'g'lining **“Tanqid”** sarlavhali maqolasi bosiladi. SHunda “tanqid” atamasi birinchi marotaba ishlatilgan va unga quyidagicha ta'rif byerilgan: “Tanqid dyemak, bir musannifning yozub maydoni intishora qo'yg'on kitobinda kyelushmag'on iboralarni matbuot vositasi ila yozub ko'rsatmoq dyemakdur”.

“Sadoi Turkiston”ning 1914 yilgi 49-sonida Ashurali Zohiriy: “YOzuvchi o'z nuqsinining qayda ekonini bilib, taqmillamoqg'a harakat qilur, yana yozar, yaxshi tuzolub, shundog' zotlar ichidan barmoq bila turtub ko'rsaturg'a arziydurg'on adiblar chiqodur”, - dyeydi.

“Sadoi Turkiston”ning 1915 yil 1 apriyeldagi 65-sonida buxorolik Zuhuriddin Fathiddinzodaning “Tanqid va taassuf” maqolasi e'lon qilindi. Muhammad Salimbyek Rahimbyek o'g'li qori Rahmatullo Vozyehning “Tuhfat ul-ahbob” tazkirasini nashr ettiradi. Z.Fathiddinzoda yuqoridagi maqolasida ana shu nashrda yo'l qo'yilgan tyekstologik xatolarni ko'rsatib o'tadi.

Dyemak, adabiy tanqidning vazifasi yangi paydo bo'lgan va mavjud asarlarning go'zalligi hamda kamchiliklarini topishdan iboratdir. Bu ishni oldin yaratilgan asarlarga nisbatan ham qo'llash mumkin. O'tmish asarlarining yangi qirrasini ochish ham tanqididir.

Adabiy tanqid adabiyotimizda yangi paydo bo'layotgan adabiy asarlarni o'rganadi. Hali tatib ko'rilmagan, tyesha tyegmagan asarlarni o'rganadi, uning qimmatini byelgilaydi, ya'ni baholaydi. Birinchidan, adabiy asarni baholab, uning ilmiy qimmatini byelgilaydi. Ikkinchidan, adabiy tanqid kitobxonga asarni tushuntiradi. SHuning ikkalasi adabiy tanqidning vazifasidir. Bir asar haqida bir nyecha tanqidchi yozadi. Asarning qimmatini tanqidchining asosiy fikri aniqlab byeradi.

Adabiy tanqid dyegani bu asarni tahlil qilish dyemakdir. Har qanday asarning ham kamchiliklari bo'ladi. Syervantyesning 1605-1606 yillarda yozgan “Don Kixot” asarini XIX asrda V.Byelinskiy ochib byeradi. Adabiy tanqid adabiy asarlarni baholab, shu baho va fikrlarni adabiyot tarixiga uzatadi. Ayrim hollarda adabiy tanqid o'z davrida to'g'ri baho byerilmagan o'tmishdagi asarlarga ham murojaat qilishi mumkin.

Tanqidchi - yozuvchi, nazariyotchi olim. Agar tanqidchi nazariyotchi bo'lmasa, asar haqida o'z fikrlarini aniq ayta olmaydi. Tanqidchi asarga taqriz, maqola yozadi. Tanqidchi yozuvchi singari ishontira oladigan, chiroyli yoza oladigan bo'lishi kyarak.

Adabiyotshunoslardan O.SHarafiddinov, M.Qo'shjonov, U.Normatov, S.Mamajonov, R.Qo'chqor va boshqalar adabiy tanqidchilar sifatida faoliyat ko'rsatishadi.

Tanqidchi ikki xil bo'ladi:

- 1.Professional tanqidchi.
- 2.YOzuvchi tanqidchi.

Professional tanqidchi bu adabiyotshunos tanqidchi. Ular adabiy asar yozmaydilar, lyekin yozuvchini chuqurroq tahlil qiladi. YOzuvchilar tanqidi bo'sh bo'ladi. Professional tanqidchilar asar yozishi shart emas.

Ta'kidlanganlardan ko'rinib turibdiki, adabiyotshunoslikning vazifasi go'zallik va kamchiliklari ochilib, baholangan asarlarni o'rganish bo'lsa, tanqid hali ma'lum bo'lmagan go'zallikni ochishdir. Go'zallikning rivojlanishida, harakat va boyishida o'rganishdir. SHuning uchun V.Byelinskiy tanqidni “harakatdagi esthetika” dyeb ataydi. Adabiyotshunoslik adabiy

tanqidga ergashadi, uning yutuq va kamchiliklaridan foydalanadi. Adabiyot tarixi tanqid tugagan joydan boshlanadi. Adabiyotshunoslik tanqid tomonidan ochilgan go'zallik va kamchiliklarni har tomonlama yoritadi. Adabiyot tarixi bilan tanqid bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bir-birisiz mavjud bo'lmaydi. Tanqid o'z izlanish va kashfiyotlarida adabiyot tarixiga suyanadi, adabiyot tarixi esa tanqiddan o'ziga yangi-yangi matyerial, ozuqa oladi, go'zallik to'g'risidagi yangi tasavvurlarni oladi. SHu bilan birga, adabiyot tarixi adabiy tanqidning kamchiliklarini tuzatib, to'ldirib, adabiy tanqid kashf etgan go'zallikni tasdiqlaydi. Har bir yangi asarni mavjud o'lchovlar bilan o'lchab bo'lmaydi. Asardan yangicha go'zallik izlash tanqidning ishi, asarga go'zallik haqidagi mavjud tushunchalar nuqtai nazaridan qarash - adabiyot tarixining ishi.

Xullas, tanqidchi bo'lmoq - go'zallikni his qilmoq, go'zallik kashf eta olmoq va ana shu go'zallikni ilmiy asoslay olmoq va uning uchun kurasha bormoqdir.

Byehbudiy hazratlari ta'kidlaganlaridye, "Tanqid saralamoqdur. Sarroflar aqchani, tujjorlar matoni saralaganidye, muharrirlar ham umumiy hol va maishatga taalluqli nimarsalarni saralaydurki, boshqa so'z ila "tanqid" atalur.

YUqoridagi tarkibiy qismlardan tashqari, ularga yaqin va byevosita bog'liq bo'lgan quyidagi sohalar ham mavjud:

Adabiyotshunoslik myetodologiyasi - badiiy adabiyotni o'rganishning tamoyil va usullarini tayin etadi. Badiiy adabiyotni ilmiy-nazariy tahlil qilish, ilmiy o'rganish yo'l va usullarini o'rgatadi. Bu usul 2 ikkiga ajraladi:

1. Adabiyotni ilmiy o'rganish myetodi.
2. Adabiyotni o'rgatish myetodi.

Adabiyotga san'at sifatida yondashish kyerak. Masalan, "Obid kyetmon" asaridagi Obid. Adabiy asarga shakl bilan mazmunning birligi dyeb qarash kyerak. "Zarbulmasal"da 400 ta misol ishlatilgan.

Adabiy asar o'sha asar yaratilgan zamon bilan bog'liq holda o'rganiladi. O'tmishda yaratilgan asarlar hozirgi zamon bilan bog'liq holda o'rganilmaydi. Adabiyotga sinfiy jihatdan yondashish to'g'ri emas.

Myetodologiya fanni o'rganishda umumiy qo'llanma rolini o'ynovchi nazariy tamoyillardir. Bizning adabiyotshunoslik adabiyot va san'atni o'rganishda quyidagi ilmiy-myetodologik tamoyillarga amal qiladi:

- san'atkor ijodining qimmatini uning davrimizga nisbatan nimalar byera olganligi bilan emas, o'z zamonasiga nisbatan nimalar byera olganligi bilan byelgilanadi;
- san'atkor ijodining qimmatini uning qaysi toifaga mansubligiga qarab emas, uning o'z asarlari bilan kimlarning manfaatlariga xizmat qilishi bilan byelgilanadi.

Adabiyot myetodikasi esa badiiy asarlarni o'rganish va o'rgatishning konkryet myetod hamda tamoyillarini byelgilab byeradi.

Endilikda madaniyat va san'atni bir-biriga qarshi, ikkiga ajratmasdan o'rganish kyerak, uni bir butun dyeb qarash kyerak. Adabiy jarayonni o'rganishda o'lchovimizga to'g'ri kyelmaydigan hodisalarni hisobdan chyetda qoldirmaslik kyerak. Ikkinchidan, asarni baholashda xalqchillik asosiy myezonlardan bo'lishi, asarning bahosini uning jamiyatga ta'siri, xalq manfaatlariga qay darajada muvofiqligini hisobga olish zarur. Uchinchidan, badiiylik ustivor myezon bo'lib xizmat qilmog'i kyerak. Bunda shakl bilan mazmunni bir-biridan ajratib qo'ymaslik kyerak. To'rtinchidan, san'at hodisalarini o'rganishda davr, sharoitni hisobga olmoq juda muhim. Taraqqiyot, harakat va rivojlanish ziddiyatdan iboratligini esdan chiqarmaslik kyerak. Ijodda aql bilan hissiyot uzviyligini nazarda tutmoq zarur. Byeshinchidan, tasavvuf bilan bog'liq majoziy yo'nalishni esdan chiqarmaslik kyerak.

Dyemak, myetodologiyaga ko'ra adabiy asarga yaxlit badiiy mahsulot dyeb qaraladi. SHakl bilan mazmun ajratilmaydi. Uni yaxlit, bir butun idrok qilish kyerak. Undagi har bir elyemyent muhim mazmun va ahamiyat kasb etadi. Ana shu unsur boshqa unsurlar bilan birlikda yashaydi. Bir bo'lakda sodir etilgan o'zgarish butun asarning xarakteriga ta'sir qiladi. SHuning uchun adabiy asar bir-biriga bog'liq narsalarning haddan tashqari nozik ravishda birikishidir. Uni tahlil qilishda

alohida qismlar ajratib olinadi. Biroq bunday dyeformatsiya (yemirilish) minimum darajaga kyeltirilishi kyarak.

F o l p k l o r s h u n o s l i k - xalq donoligidir. Folpklor atamasi ham kyeng, ham tor ma'noda ishlatiladi. Kyeng ma'noda folpklor og'zaki adabiyotdan tashqari xalq og'zaki musiqasi, tibbiy fikrlarni, urf-odatlarni ham o'z ichiga oladi. Tor ma'noda esa, og'zaki badiiy adabiyot ma'nosini byeradi.

Folpklorshunoslik - xalq og'zaki badiiy ijodini o'rganuvchi fandir. Folpklor - xalq dostonlari, qo'shiq, maqol, drama, ertak va hokazolarni bildiradi.

Folpklor bilan yozma adabiyot o'rtasida birlik bor: folpklor ham, badiiy adabiyot ham so'z san'ati bo'lib, hayotni aks ettiradi.

YOzma adabiyot folpklor matyerialidan foydalanadi, undan oziqlanadi, ayrim g'oya va shakllarni oladi. Lyekin yozuv adabiyoti bilan folpklor o'rtasida ham katta farq bor, bu esa quyidagilarda ko'rinadi:

1) folpklor badiiy ijodning boshlanish davri uchun xosdir. YOzma adabiyot madaniyat tarqqiyoti, yozuvning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, u hayotni aks ettirish uchun folpklardan ko'ra mukammalroq tamoyil va usullardan foydalanadi;

2) folpklor jamoa ijodi mahsulidir, uning muallifi yo'q;

3) folpklor asarlari muttasil qayta ishlanib, o'zgarib turadi.

Adabiyotshunoslik folpklor matyeriali va folpkloristika xulosalarini hisobga oladi. Xususan, yozma badiiy adabiyotga folpklor asarlari ta'siri masalalarini o'rganishda adabiyotshunoslik folpkloristika va folpklor asarlariga murojaat qiladi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik - o'nlab yillar davomida qatag'on qilindi. Bugungi kunda o'zbyek va xorij adabiyoti bor. O'zbyek adabiyoti xorijiy adabiyotga yetib olishi uchun unga o'zini qiyoslab, undan o'rnak olishi zarur. Qiyosiy adabiyotshunoslik turli milliy adabiyotlarni bir-biriga qiyoslab o'ranadi. Umumiy qonuniyatlarni ochadi. Adabiyotshunoslikni boshqalardan ajratib o'rganishga yo'l byermaydi. Adabiyotning millati bo'lmaydi, milliy xususiyati bo'ladi.

Adabiyotni qiyoslab o'rganish X1X asrda paydo bo'ldi. Gul obrazi eron adabiyotida paydo bo'ldi. Hind adabiyotida esa bulbul obrazi yo'q, balki kakku obrazi bor.

Adabiy ta'sir adabiyot taraqqiyotiga, uning rivojiga muhim ta'sir vositasidir. Adabiy ta'sir adabiyot taqdiriga ta'sir qilmaydi.

Asos solganlar - olmon mutafakkiri I.G.Gyerdyer, ingliz olimi Dj.Dyenlon (X1U). Dj.Byenfyeyning hind eposi "Panchatantra"ning olmoncha tarjima nashriga so'zboshisi (1859) qiyosiy adabiyotshunoslik-ning asosiy qoidasi bo'lib qoldi. Rossiyada F.I.Buslayev, A.Vyesylovskiylar qiyosiy adabiyotshunoslikning shakllanishiga katta hissa qo'shdilar.

Qiyosiy adabiyotshunoslik bir nychta xalq va mamlakat adabiyotini bir-biriga solishtirib o'rganadi. Turli milliy adabiyotlarni bir-biriga solishtirish yo'li bilan ulardan har birining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasini aniqlanadi.

Adabiyotlarni qiyosiy o'rganish natijasida ayrim asarlargina emas, adabiyotning bosqichlari, adabiyotlar o'rtasidagi o'xshashliklar, umumiyliklar aniqlanadi. Ayrim hollarda bunday o'xshashliklar bir-biridan butunlay byexabar adabiyotlar o'rtasida ham uchrashi mumkin. Bunday o'xshashlik tipologik aloqadorlik dyeyiladi. Bir-biridan o'rganib, o'zaro ta'sir natijasida paydo bo'lgan o'xshashlikka kontakt aloqa dyeyiladi. Har qanday adabiyot boshqalarning ta'sirisiz, o'z qobig'ida rivojlana olmaydi. Biror adabiyotni ana shunday mutlaq mustaqil qilib ko'rsatish bu mahalliychilik bo'lib, haqiqatga to'g'ri kyelmaydi. Biroq o'zaro ta'sir va yaqinlik u yoki bu xalq adabiyotining milliy xususiyatlarini yo'qqa chiqarmaydi. Ammo adabiy ta'sirni hal qiluvchi dyeb ta'riflash ham to'g'ri emas. Adabiy ta'sir yo'qni bor qilmaydi, balki milliy adabiyot taraqqiyotini tyezlashtiradi. SHu bilan birga, bir adabiyotni to'laqonli va hammaga ta'sir qiladigan, boshqa adabiyot esa taqlidi dyeb qarash to'g'ri emas.

Tarjima shunoslik - badiiy adabiyotlar o'rtasida muhim ahamiyatga egadir. Tarjima bu adabiyotlar o'rtasidagi elchi, tilmoch. Tarjima tufayli yozuvchilar boshqa adabiyotlarni o'rganadi. Tarjima adabiyotlarni boyitadi. Tarjimon tarjimani tahlil qiladi, tarjimada har qanday iboralar ham tarjima qilinmaydi. Buning o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari bor.

Tarjima bu san'atdir, bu ijoddir. Bu asarni o'girish emas, balki boshqatdan yaratishdir.

Tarkibiy qism va boshqa sohalardan tashqari, adabiyot haqidagi fanning yordamchi sohaları ham mavjud:

Matnshunoslik - badiiy asarlarning variantlari, nusxalari va turli qo'lyozmalarini solishtirish asosida originalga yaqin bo'lgan matnni tiklaydi, xatoliklarni bartaraf qiladi, kyeyin kiritilgan o'rinlarni topib, originalni ulardan tozalaydi va tushib qolgan o'rinlarni to'ldiradi. Masalan, "Maxabxorat"ning matni 1919-1967 yillar davomida olib borilgan tyekstologik tadqiqot natijasida tiklangan. Bu ishini mashhur hind olimi R.G.Bxandarkar boshqargan. Buning uchun 1250 ta qo'lyozma o'rganib chiqilgan. SHulardan 734 tasi tanlab, asos qilib olingan. Katta hajmda 13 ming byetdan iborat tanqidiy matn nashr etilgan. Tanqidiy matn 100 ming shlok (1 shlok 2 misra), ya'ni 200 ming misraga yaqin.

Manbashunoslik - adabiyot tarixi, nazariyasi, adabiy tanqid, ayrim yozuvchilar, adabiyotshunoslikning ma'lum muammolariga oid ilmiy, tanqidiy manbalarni to'plashdir. Manbashunoslik bu manbalarni topish, qidirish, ro'yxatlarini tuzish, sistyemalashdan iborat. Ilmiy ish qilishdan oldin ham manbalar to'planadi. Bunda ayrim masalalarning tarixi, fanning tarixi, jumladan, adabiyotshunoslik tarixi o'rganiladi.

Atributsiya - muallifi noma'lum manbalarning muallifini aniqlashdir. Masalan, Xomyer masalasi, SHyekspir masalasi, Lutfiyning "Gul va Navro'z" asari, Durbyekning "YUsuf va Zulayho" dostoni va boshqalar.

"YUsuf va Zulayho" dostoni an'ana bo'yicha Durbyekniki dyeb kyelinadi. Frantsuz olimi E.Bloshye doston Navoiyniki dyeydi. D.Voronskiy dostonni Ulug'byekka nisbat byeradi. Afg'on olimi Juzjoniyy Homidiy Balhiyga nisbat byeradi. 1979 yilda M.Diyoriy dostonni YOdgorbyek Jahonmulk o'g'liniki dyeydi. J.Lapasov XU asr shoiri "Sozlar munozarasi" asarining muallifi Ahmadiy bo'lsa kyerak, - dyeydi.

YOki «Gul va Navro'z» dostoni Lutfiyga nisbat byerilgan. Lyekin tadqiqotlar doston Haydar Xorazmiy qalamiga mansubligini to'la tasdiqladi.

Bibliografiya (biblio-so'z, grafo-yozuv) - badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid adabiyotlar ro'yxatini tuzish, ularga annotatsiya, obzor yozish. Ilmiy o'rganish lozim bo'lgan manbalar ko'rsatkichi. YAngi chiqqan adabiyotlar, badiiy asarlar, maqola va matyeriallarni hisobga olib boradi.

Bibliografik to'plamlar, bibliografik ko'rsatkichlar, kitob yilnomalari, jurnal matyeriallari yilnomalari, gazyeta matyeriallari, kutubxonalaridagi kataloglar (katalog - yunoncha "qayd etish"), alfavit katalog, sistyematik katalog.

Bibliografiya - kitoblarning yozilgan, ko'chirilgan, bosib chiqarilgan vaqti, joyi, ba'zan mazmuni, muallifga oid to'plamlarni ma'lumotlarini to'playdi, ularga annotatsiya yozadi.

2.2.5. Mashg`ulotlarning pedagogik texnologiyasi va texnologik xaritasi

“Adabiyot nazariyasi” FANIDAN

TA`LIM TEXNOLOGIYASI

Uslubiy qo`llanmada “**Adabiyot nazariyasi**” faniga oid ma`ruzalarning mazmun-mohiyatini talaba yoshlarga yetkazish, unda ko`tarilgan axloqiy-tarbiyaviy masalalarni ular ongiga singdirish bo`yicha ta`lim berish texnologiyasi keltirilgan.

Tuzuvchi: dots. Yu. Karimova

MUQADDIMA

“**Adabiyot nazariyasi**” fani badiiy adabiyotning eng yaxshi an`analari, odatlari, axloqiy qoidalarini o`zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni odob-axloqli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotni maxsus o`qish va o`rganish estetik va emotsional, aqliy va axloqiy tarbiyaning muhim vositasi sifatida ayrica ahamiyat kasb etadi. U talabalarda aql-idrokni, zavq va nazokatni tarbiyalashda asosiy omillardan biri sifatida ko`zga tashlanadi. Ijodkor xalqimiz vakillari tomonidan yaratilgan nodir ma`naviy boylik hisoblangan folklor asarlari asrlar osha olijanob g`oyalarni betakror badiiy shaklda kishilar qalbiga jo etishda bebaho sarchashma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Adabiyot nazariyasini o`rganish orqali badiiy so`z mohiyatini yanada chuqurroq anglash mumkin. U talabalarining nutq boyligini o`stiradi. Badiiy tafakkurini, dunyoqarashini taraqqiy toptiradi. Shuningdek, badiiy ijodga oid janrlar bilan yaqindan tanishishga, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilib olishga yordam beradi.

“**Adabiyot nazariyasi**” fani bo`yicha olib boriladigan amaliy mashg`ulotlar talabalar nutq madaniyatini o`stirishga, nazariy bilimlarini yanada mustahkamlashga, adabiy hodisalarni mustaqil tahlil va tavsif qilib, genetik ildizini ochishga, badiiy adabiyot namunalarini to`plash va tadqiq qilishga, ularga xos badiiy so`z, kuy va harakat omuxtaligini his qilish va tekshirishga o`rgatadi, ularda o`qituvchilik va tadqiqotchilik malakasining shakllanishiga ko`maklashadi.

“**Adabiyot nazariyasi**” fani bo`yicha mashg`ulotlar ikki bo`limdan iborat holda olib boriladi:

1. Fanning nazariy asoslari.
2. Fan bo`yicha amaliy va seminar mashg`ulotlari.

Fanning nazariy asoslari bo`yicha o`tkaziladigan mashg`ulotlarda talabalarga adabiyotshunoslikning mohiyati, ijodkor ijodi mahsuli ekanligi, uning an`anaviyligi, variantlashishi, og`zaki tarzda yaratilib, og`zaki tarzda keng tarqalishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari beriladi.

Amaliy mashg`ulotlar ma`lum mavzu bo`yicha nazariy bilim berilgandan keyin olib boriladi. Amaliy mashg`ulotlar nazariy bilimlarni yanada mustahkamlashga, uni takomillashtirishga yordam beradi. Amaliy mashg`ulot bilan nazariy mashg`ulot bir-birini to`ldiradi.

Xullas, “**Adabiyot nazariyasi**” fani talabalarni badiiy adabiyotning o`ziga xos kuchi, badiiy asarlarda aks etuvchi betakror milliy an`analari, urf-odatlar, o`tmish tarixi, ulug` siymolarning hayot yo`li, ezgu ishlari, qadimgi ajdodlarimizning tabiat va jamiyat hodisalariga munosabati, ko`p asrlik badiiy-ijodiy salohiyati bilan yaqindan tanishtiradi.

Havola etilayotgan mazkur o`quv-uslubiy majmua “**Adabiyot nazariyasi**” bo`yicha talabalarga bilim yetkazish maqsadida oliy ta`limning o`zbek filologiyasi bakalavriyat ta`lim yo`nalishi va mutaxassisligi uchun 76 soatlik (30 soat ma`ruza, 10 soat amaliy mashg`ulotlar, 36 soat mustaqil ta`lim) hajmida tayyorlangan. O`quv-uslubiy majmua asosan ushbu fan bo`yicha tahsil byeradigan profyessor-o`qituvchilar hamda talaba (o`quvchi)lar uchun mo`ljallangan.

1-mavzu	Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida, fanning maqsad va vazifalari
----------------	---


1.1. “Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida, fanning maqsad va vazifalari” mavzusidagi ma`ruza bo`yicha ta`lim berish tyexnologiyasining modyeli

Mashg`ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 100 –120 gacha
Mashg`ulot shakli	Kirish-axborotli ma`ruza
Ma`ruza rejasi	Ryeja: 1. Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi ekanligi. 2. Ular o`rtasidagi munosabat. 3. Istiqlool mafkurasini shakllanishida adabiyot nazariyasining o`rni. 4. Adabiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Fan haqida umumiy tushuncha byerish. Talabalarni Adabiyot nazariyasi fan sifatida, fanning maqsad va vazifalari o`ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, janriy tarkibi va tizimi bilan tanishtirish.	
<i>Pyedagogik vazifalar:</i> • Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha byerish;</li> <li>• Talabalarga Adabiyot nazariyasining o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida ma`lumotlar byerish;</li> <li>• Talabalarga Adabiyot nazariyasining taraqqiyot davrlari haqida ma`lumotlar byerish; • Talabalarni Adabiyot nazariyasining janriy tarkibi va tizimi bilan tanishtirish; Talabalarni Adabiyotshunoslikning badiiy adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	<p><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi. • Adabiyot nazariyasining o`ziga xos xususiyatlarini ochib byeriladi.</li> <li>• Adabiyot nazariyasining taraqqiyot davrlarini yoritib byeriladi.</li> <li>• Adabiyot nazariyasining janriy tarkibi va tizimi ko`rsatib beriladi. • Adabiyotshunoslikning yozma adabiyot bilan munosabati dalillab byeriladi
<i>Ta`lim byerish usullari</i>	Ko`rgazmali ma`ruza, suhbat
<i>Ta`lim byerish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta`lim byerish vositalari</i>	O`quv qo`llanma, proyektor
<i>Ta`lim byerish sharoiti</i>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og`zaki nazorat: savol-javob

1.2. “Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida, fanning maqsad va vazifalari” ma`ruza mashg`ulotining tyexnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim byeruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi.	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash myezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro'yxatini byeradi va ularga qisqacha ta'rif byeradi (1-ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash myezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar byeradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar byerilgan savollarga javob byeradilar.
2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib byeradi. 2.2. Adabiyot nazariyasi haqida umumiy tushuncha byeriladi, unda badiiy adabiyotning o'ziga xosligi, shuning uchun ijodkori, uning mahorati, badiiy adabiyotda an'anaviylik, ijodiy metod masalasi, adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqidagi fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova). 2.3. O'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining taraqqiyot davrlari, adabiyotshunoslikning qadimgi namunalari orqali etib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma'lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O'zbyek adabiyotshunosligining janriy tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib byeriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar byeriladi: 1. «Adabiyot nazariyasi» istilohi nimani anglatadi? 2. Adabiyotshunoslikning paydo bo'lishi omillari nimada? 3. Adabiyot nazariyasi da badiiy asar masalasi qanday hamda unda an'ana va novatorlik qanday zuhur etadi? 4. Badiiy asarning variant va versiya mohiyati nimalarda ko'rinadi? 5. Adabiyotshunoslikning dastlabki namunalari qaysi yozma manbalarda bizgacha yetib keldi? 6. Adabiyot nazariyasi nima? U yozma adabiyot vakillari ijodida qanaqa shakllarda namoyon bo'lgan? 7. O'zbek adabiyotshunosligida qaysi tarkibiy qismlari paydo bo'ldi va bu davr adabiyotshunosligining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi? 8. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari va o'rtasida o'zbek adabiyotshunosligi qaysi jihatlariga	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar byerilgan savollarga javob byeradilar. Tinglaydilar, yozadilar.

